

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK PEDAGOGIKA INSTITUTI**

“Qurilish” fakul teti

“Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi” kafedrası

«MUHANDISLIK TARMOQLARI VA JIHOZLARI»

FANINIDAN

**MA`RUZALAR
MATNI**

5140900 – Kasbiy ta'lim “Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi” yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan.

Namangan - 2010

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK PEDAGOGIKA INSTITUTI**

“Qurilish” fakul teti

“Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi” kafedrasi

«MUHANDISLIK TARMOQLARI VA JIHOZLARI»

FANINIDAN

**MA`RUZALAR
MATNI**

5140900 – Kasbiy ta'lim “Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi” yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan.

Institut Uslubiy
Kengashida tasdiqlangan
“ ” _____ 2010

y.

Namangan - 2010

Annotatsiya

Mazkur “Ma`ruzalar matni” 5140900 – Kasb ta`limi “Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi” yo`nalishida ta`lim olayotgan talabalar uchun mo`ljallangan bo`lib, «Muhandislik tarmoqlari va jihozlari» fanidan o`quv-ishchi dasturiga muvofiq 18 soatlik ma`ruza mashg`ulotlari mavzularini o`z ichiga olgan. Unda muhandislik tarmoqlaridan foydalanish, muhandislik jihozlaridan foydalanishni tashkil qilish, bu yo`nalishdagi o`zgarishlar, muammolar atroflicha yoritib berilgan.

Barcha mavzular bo`yicha tayanch so`z va iboralarning berilganligi “Ma`ruzalar matni”dan yanada samarali foydalanish imkonini beradi.

Ma`ruzalar matni
“Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi”
kafedrası yig`ilishida ko`rib
chiqilgan va ma`qullangan.
Majlis bayoni № “___” _____ 2010 y

Ma`ruzalar matni “Qurilish”
fakul teti uslubiy komissiyasida
ko`rib chiqilgan va tasdiqlangan.
Majlis bayoni № “___” _____ 2010 y

Mualliflar: dotsent Bahodirov A.A.
katta o`qituvchi Jo`raev Sh.Sh.

Taqrizchi: NamMPI “Muhandislik kommunikatsiyalari
qurilishi” dotsent M.K.Negmatov.
“Namangankommunalta`mirloyixa”
MChJ direktori N.R.Xojiev

Soʻz boshi

Taʼlim toʻgʻrisidagi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amalda bajarilishiga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Bunda kelajagimiz poydevori boʻlmish yoshlar tarbiyasiga, ularning maʼnaviy pok, insoniy fazilatlarga boy boʻlgan chuqur bilimli yetuk mutaxassis boʻlib yetishishlariga katta eʼtibor berilmoqda.

Yosh mutaxassis kadrlarni tayyorlashda texnik adabiyotlarning, shu jumladan darslik va oʻquv qoʻllanmalarining tutgan oʻrni beqiyosdir. Lekin bugungi kunda «Muhandislik tarmoqlari va jihozlari» faninidan mutaxassislik fanlari boʻyicha mavjud lotin tilidagi adabiyotlarning son jixatdan kam, sifat jixatdan esa talab darajasida emasligi xech kimga sir emas.

Bu yoʻnalishdagi muammolarni biroz boʻlsada hal qilish, “Muhandislik tarmoqlari va jihozlari” fanini talabalar tomonidan chuqur oʻzlashtirishga erishish maqsadida mazkur “Maʼruzalar matni” tuzildi.

“Maʼruzalar matni” birinchi bor lotin tilida yozilganligi uchun unda xato va kamchiliklarning boʻlishi ehtimoldan xoli emas. Bu toʻgʻrida fikr – muloxazalarini bildirgan talaba va xamkasabalarimizga oldindan oʻz minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Mualliflar.

1-Ma`ruza.

Mavzu: “Muhandislik tarmoqlari jihozlari” fani haqida ma`lumotlar. Fanni o`rganishdan maqsad bino va inshootlarning injenerlik jihozlari bilan ta`minlash va ularni ishlatish. (2 soat)

O`quv modul birliklari:

1. Talabalarni mavzuga oid bilimlarini faollashtirish. Muammoli savol va vaziyatlar tahlili.
2. “Muhandislik tarmoqlari jihozlari” fani haqida ma`lumotlar.
3. Fanni o`rganishdan maqsad bino va inshootlarning injenerlik jihozlari bilan ta`minlash va ularni ishlatish.
4. Ma`ruzani xulosalash.

O`zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimov rahbarligi ostida O`zbekiston xukumati tomonidan mamlakat iktisodiyotini rivojlantirish yulidagi isloxlarni boskichma-boskich amalga oshirishda axolini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta`minlash ustivor yunalishlardan biri kilib belgilandi.

Axolini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta`minlash yuzasidan kabul kilingan Davlat dasturida “Yakin besh-etti yil ichida mamlakatni barcha axoli punktlari sifatli ichimlik suvi bilan ta`minlanishi zarur. 2005 yilga kadar kishlok axolisini ichimlik suvi bilan ta`minlash 82% ga yetkazish kerak. Buning uchun 1999-2005yillarda kishlok joylarida 30 ming kilometr ga yaqin gaz tarmoklarini, 18 ming kilometr suv kuvuri tarmoklarini ishga tushirish darkor. ” deb kursatilgan.

O`zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimovni 14 aprel 1999 yil birinchi chakirik O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 14-sessiyasidagi ma`ruzasida ta`kidlab utilganidek “XXI asr arafasi va uning dastlabki yillarida mamlakatimizning rivojlanishi strategiyasi, isloxlarni chukurlashtirish va jamiyatni yangilash borasida ustivor yunalishlarning yana biri kadrlar masalasidir”. Biz oldimizga kanday vazifa kuymaylik, kanday muammoni yechish zarurati tugilmasin, gap oxir okibat, baribir kadrlarga va yana kadrlarga borib takalaveradi. Oliy Majlis IX sessiyasida kabul kilingan “kadrlar tayorlash buyicha Milliy dasturni amalga oshirish xayotga tadbik etish, xech bir mubolagasiz, strategik maksadlarimiz, farovon, kudratli, demokratik davlat, erkin fukorolik jamiyati barpo etishimizning asosi bulmogi zarur”.

Yukoorida kursatilgan ustivor yunalishlardagi suv ta`minoti, suvokava va gaz ta`minoti tarmoklarini ishga tushirish va ularni xayot talablariga asosan me`yorda ishlashini ta`minlash bu soxa mutaxassislaridan yukori malakaga va chukur bilimga ega bulishni takoza etadi.

Mamlakatimizda suv ta`minoti, suvokava, issiklik va gaz ta`minoti kuvurlari mikdori va ularning utkazish kobiliyatini yildan yilga ortib borishi soxa mutaxassislari oldida murakkab masalalarni xal kilish extiyojini kuyadi.

Suv ta`minoti va suv okava tarmoklarini ekspluatatsiya kilish, texnika xavfsizligi va tabiatni muxofaza kilish koidalarga rioya kilgan xolda istemolchilarni suvga bulgan extiyojini kondirish, ya`ni yetarli mikdorda suvni yetkazib berish va ishlatilgan suvni tozalash inshootlariga yetib borishini ta`minlash, xamda ruxsat etilgan kontsentratsiyaga kadar tozalanib yaqin suv xavzalariga kuylishini ta`minlash demakdir.

Istemolchilarni tabiiy gaz bilan ta`minlash masalasi xam uz ichiga kator murakkab inshootlarni muayyan ishlashini ta`minlash yuli bilan amalga oshiriladi.

Muxandislik tarmoklari va jihozlari soxasi xodimlari oldiga kuyilgan topshiriklarni bajarishi uchun:

- ◆ shu soxadagi uskkuna jihozlarni tuzilishi, ishlash printsipi, bir-biri bilan alokasi va bir-biriga ta`siri, xamda ularni boshkarish printsiplarini:
- ◆ uskuna va jihozlarni ishlatishda texnika xavfsizligi va yongin xavfsizligi koidalarni:
- ◆ barcha uskuna va jihozlarni ishlatish va ta`minlash koidalarni, me`yoriy kapital va joriy ta`mir orasi muddatlarini:

- ◆ uskuna va kurilmada sodir bulayotgan gidravlik va gazodinamik jarayonlar konun koidalari va bu jarayonlarga ta'sir kilish yullarini:
- ◆ suv va gazni tozalash, saklash va istemolchiga uzatishdagi texnologik jarayonlarni ta'minlashni:
- ◆ barcha texnik va texnologik jarayonlarni amalga oshirishda avtomatik boshkarish printsiplarini bilishi va uz vazifasini bajarishda zarur bulgan iktisodiy bilimlarga ega bulishi va boshka ishlarni bajarishda ilgor uslublarni mukammal bilish va bu koida va tartiblarga amal kilish lozim.

Xozirgi zamondagi texnikaning keskin rivojlanishi, ishlatilayotgan asbob uskunalar va jixozlarning oz fursat ichida ma'naviy eskirib kolishiga olib keladi. Bu xolatni oldindan kura bilish va uz vavutida zamonaviy uskunalariga almashtirish fakatgina uz ishini mukammal bilgan, xamda uz ustida ishlab bu soxadagi jaxon standartiga mos yangiliklardan xabardar bulgan mutaxassisgina kulidan kelishi mumkin.

Ushbu ma'ruzalar matni suvokava, suv, issiklik va gaz ta'minoti buyicha barcha jarayonlarni turlarini yoritib berishni uz ichiga olmasada, unda shu soxalardagi asosiy texnik va texnologik jarayonlar yoritilgan va ushbu jarayonlar buyicha tushuntirishlar, ularga ta'sir kilish yullari, yakin kelajakdagi istikbolli yunalishlar va ishlash uslublari ochib berilgan.

Muxandislik tizimlarini texnik va xo'jalik xarakteristikalarini

Ekspluatatsion tashkilotlarning asosiy vazifasi injenerlik sistemalarining barcha zvenolarini avariyaiz va ishonchli ishlashi, issikliik, gaz, suvni uzluksiz etkazib berish xamda ularni okilona foydalanishni ta'minlashdan iborat.

Sanitariya texnikasi sistemalarining ishonchli ishlashi ekspluatatsion ishlarni planlashtirish orkali ta'minlanib, u tashkiliy va texnik tadbirlarni bajarishdan iborat.

Tashkiliy tadbirlar normativ xujjatlar (muassasa standartlari, tuzatish koidalari, texnik foydalanish koidalari va boshkalar) ni ishlab chikarishdan iborat.

Texnik tadbirlar texnik xizmat kursatish sanitariya texnikasi sistemalarining barcha elementlarini tuzatish va talab kilingan ish rejimiga rioya kilishni nazarda tutadi.

Texnik xizmat kursatish kundalik texnik xizmat kursatish va xaftalik texnik xizmat kursatishga bulinadi.

Ekspluatatsion xizmat ma'lum ish turlarini bajarishga muljallangan yirik iktisoslashtirilgan pudrat tashkilotlardan iboratbulib, ularga binolardan foydalanish direktsiyasi sanitariya texnikasi sistemalarini tuzatish va ularga xizmat kursatish ishlariga buyurtma beradi. Dispetcherlik xizmati jixozlar va sistemalarning optimal ish rejimiga kat'iy amal kilish xisobiga suv, issiklik va boshka ishlab chikarishga alokasi bulmagan xarajatlar isrofini kamaytirishni ta'minlaydi. Ekpluatatsion xizmatlarni tashkil kilishning boshkacha shakli bu binolardan foydalanish buyicha kompleks ishlarni bajaruvchi yiriklashtirilgan uy-joy-ekspluatatsion tashkilotlardir.

Muxandislik tizimlariga kuyiladigan talablar

Mexnatni tashkil kilish va ragbatlantirishning brigada formmasini ish vaktidan unumli foydalanish, bajariladigan ish sifatini yaxshilash, ayniksa, yosh ishchilar malakasini jadal ustirish xamda ular professional kunikmalar olishi uchun imkoniyatlar tugdiradi.

Muxandislik tizimlarini mustaxkamlik nazariyasini urganish yakinda boshlandi. Mustaxkamlik nazariyasi fanda kuyidagi vazifalarni urganadi:

- mustaxkamlikning xarakteristikasi va kriteriyalari;
- jixozlarni mustaxkamlikka tekshirish tadvikotlarini ishlab chikish;
- ob'ektlardan foydalanishni ilmiy tadvikotlarini ishlab chikish;

- tizimlarni ishonchliligini oshirish yullari quyidagicha;
 - egizak sistemalar va jixozlar;
 - sistemalarni soddalashtirish ;
 - ishonchli jixozlarni tanlash ;
 - ish rejimini ta'minlash;
 - eng asosiy kursatkichlarni nazorat qilish.

Shuning uchun muxandislik tizimlarini ishonchliligi va sifatini oshirish kompleks vazifa bo'lib, uni hal qilish eng avvalo kompleksdagi issiqlik bilan ta'minlash, suv bilan ta'minlash, gaz bilan ta'minlash tizimlaridan foydalanish va bajarish ishlarini aniq tashkil etishni talab qiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Fanning maksadi va vazifalari?
2. Muxandislik tizimlari?
3. Muxandislik tizimlarini texnik ishlatish ?
4. Texnik va xujalik xarakteristikalarini tushuntirish?

2-Ma'ruza.

Mavzu: Binoning isitish tizimlari. Umumiy tushuncha. Isitish uskunalariga qo'yiladigan talablar. Issiqlik tashuvchilar. (2 soat)

O'quv modul birliklari:

1. Talabalarni mavzuga oid bilimlarini faollashtirish. Muammoli savol va vaziyatlar tahlili.
2. Isitish uskunalariga qo'yiladigan talablar.
3. Issiqlik tashuvchilar.
4. Ma'ruzani xulosalash.

Xalqimiz farovon yashashini ta'minlash yo'llaridan biri ularning yashash sharoitlarini yaxshilashdan iboratdir. Xalqimiz farovon yashashi uchun davlatimiz tomonidan xar bir xonadon 2015 yilgacha uy joy bilan ta'minlanishi kerakligi uqtirib o'tildi. Shu bilan birga ularni bir joydan turib issiqlik bilan taminlash masalasiga ham alohida e'tibor berilmokda. Issiqlik bilan ta'minlash deganda bino va inshootlarni issiqlik energiyasi bilan ta'minlash tushuniladi.

Issiqlik bilan ta'minlash tizimlari xalq xo'jaligini rivojlantirishining katta bir bo'lagini tashkil etadi. Buni anglab yetish uchun xalq xo'jaligida qazib olinadigan va ishlab chiqiladigan yoqilg'ining issiqlik ta'minotiga 25 foizi sarflanishini aytishning o'zi kifoya qiladi. Xozirgi yoqilg'i tanqis zamonda undan unumli foydalanish davlat miqyosidagi vazifalardan biri hisoblanadi.

Markaziy issiqlik bilan ta'minlash yirik tuman qozonxonalarini tomonidan amalga oshiriladi. Yirik tuman qozonxonalarining FIK mayda qozonlar FIK dan ancha yuqori. Issiqlik elektr markazlari yordamida issiqlik bilan ta'minlash tizimlari, issiqlik bilan ta'minlash tizimlarining oliy formasini tashkil etadi. U yoqilg'i sarflanishini 20—25 foizga qisqartirish imkonini beradi. Bundan tashqari markaziy issiqlik bilan ta'minlash katga sotsial ahamiyatga ega, u ishlab chiqarish mehnat unumdorligini oshirish imkonini beradi, mehnat sharoitini yaxshilaydi, odamlarning yashash sharoitini yaxshilaydi. Markaziy issiqlik bilan ta'minlash tizimi, mayda isitish tizimlarini yo'qotish imkonini beradi. Chunki bunday mayda uskunalar atrof muhitni iflos chiqindilar bilan zaharlaydi. Shunday qilib markaziy isitish tizimlari atrof-muxitni muhofaza qilishda ham katga rol o'ynaydi. Xozirgi vaqtda, fan va texnikaning yadro energiyasidan foydalanishdagi yutuqlari yangi yo'lni ochib berdi. Xozirgi paytda atom energiyasida ishlaydigan issiqlik elektr manbaalari va atom energiyasida ishlaydigan

qozonxonalar ishlab turibdi. Yadro energiyasidan foydalanish qimmatli xom ashyo, organik yoqilg'ilarni tejamli ishlatish imkonini bermoqda.

Markaziy isitish tizimlari quyidagi asosiy elsmenlardan iborat: issiqlik manbaai, issiqlik tarmoqlari va iste'molchilar. Iste'molchilarga— isitish, ventilyatsiya va issiq suv bilan ta'minlash sistemalari kiradi.

Markaziy isitish tizimlarida issiqlik manbaai sifatida ikki turdagi issiqlik manbaalari ishlatiladi: issiqlik elektr markazi (IEM) va tuman qozonxonasi (TQ). IEM bir vaqtning o'zida ham elektr, ham issiqlik energiyasi ishlab chiqaradi. Bu o'z vaqtida yoqilg'ini tejash imkonini beradi. IEM da ishchi jism (suv bug'i), birlamchi energiyasi trubina valini aylantirishga ya'ni, elektr energiyasini hosil qilishga ishlatiladi. Ma'lum miqdorda ishlagan bug' esa isitkichlardan o'tib issiqlik bilan ta'minlash tizimiga o'z isiqqligini beradi. Tuman qozonxonalarida esa faqat issiqlik energiyasi olinadi va elektr energiyasini olish uchun maxsus kondensatsion elektr stantsiyalari quriladi. Bunday alohida, alohida energiyalar olish davlatga ancha qo'shimcha yoqilg'i sarfi qilinishini talab qiladi.

Shuni unutmaslik kerakki, IEM uchun sarflanadigan maxsus qurilmalarning umumiy qiymati alohida kondensatsiya elektr stantsiyalarida (KES) va TQ sarflanadigan qurilma qiymatidan ancha qimmat turadi. Shuning uchun IEMlarini issiqlik miqdorini katta talab qiladigan yirik tumanlarga qurish maqsadga muvofiqdir.

Issiqlik bilan ta'minlash tizimlarida issiqlik tashuvchi sifatida suv va suv bug'i ishlatiladi. Suv bilan isitish tizimlari yashash va jamoat binolarida qo'llaniladi. Bug' bilan isitish esa ishlab chiqarish binolarida, zavod va fabrikalarda ishlatiladi. Issiqlik tashuvchi issiqlik manbaaidan ochiqlik yo'llari yordamida iste'molchilarga tarqatiladi. Issiq suv iste'molchilarga uzatuvchi issiqlik yo'llari yordamida berilib, u o'z isiqqligini issiqlik almashtiruvchilar yordamida iste'molchilarga beradi va va qaytish yo'li orqali ya'ni issiqlik manbaaiga tushadi. Shu yo'l bilan issiqlik tashuvchi iste'molchi va issiqlik manbai o'rtasida aylanib yuradi. Issiqlik tashuvchining aylaniishi esa issiqlik manbaida joylashgan nasoslar yordamida amalga oshiriladi.

Suv bug'i iste'molchilarga bug' uzatuvchi orqali uzatiladi. Bug' o'z bosimiga asosan harakatlanadi. Bug' o'z energiyasini iste'molchiga berib, kondensatga aylanadi va kondensat yo'li orqali yana issiqlik manbaaiga kelib tushadi. Uning harakati tizimda mavjud bo'lgan ortiqcha bosimga asoslangan yoki kondensatsion nasoslar yordamida amalga oshiriladi.

Zamonaviy shahar issiqlik tarmoqlari murakkab injener inshootini tashkil etadi. Issiqlik tarmoqlarining uzunligi hozirgi paytda bir necha o'n kilometr masofalarni tashkil etib ularda ishlatiladigan quvurlarning diametri 1440 mm ga boradi.

Issiqlik tarmoqlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- 1) issiqlik uzatuvchilar (quvurlar);
- 2) kompensatorlar, o'chiruvchi qurilmalar, himoyalovchi qurilmalar, nasos stantsiyalari, tuman issiqlik punktlari (TIP) va issiqlik punktlari (IP).

Issiqlik uzatuvchilarni yer ostiga, yer ustiga, yer ostiga maxsus kanallar, tonnellarga qo'yish mumkin. Issiqlik tashuvchi harakati davomida issiqlikni kam yo'qotishni hisobga olib, issiqlik uzatuvchilar maxsus issiqlik o'tkazmaydign materiallar bilan o'raladi.

Isitish tizimlarini gidravlik va issiqlik tomonidan boshqarish uchun maxsus pnevmatik qurilmalar ishlatiladi. Iste'molchilardan eng ko'p issiqlik talab qiluvchi tizim — bu isitish tizimlaridir. Tashqi harorat o'zgarishi bilan iste'mol qiluvchi issiqlik miqdori ham o'zgarib turadi. Shuning uchun bu tizimlarda markaziy boshqaruv ya'ni issiqlik manbaaidan turib boshqarish amalga oshirilgan. Shu bilan birga boshqarishning mustahkam bo'lishini ta'minlash uchun issiqlik punktlarida ham avtomatik boshqargichlar o'rnatilgan. Issiq suv bilan ta'minlash tizimlari esa avtomatik ravishda 65°S li suv berish bilan ta'minlangan.

Issiqlik punktlari markaziy (MIP) va individual (IIP) issiqlik punktlariga bo'linadi. MIP dan bir necha binoni issiqlik bilan ta'minlash amalga oshiriladi. MIP alohida bir qavatli binoga joylashtiriladi. IIP esa binoning o'ziga joylashtiriladi.

Biz yuqorida organik yoqilg'ida ishlaydigan issiqlik manbaalari xaqida to'xtalib o'tdik. Yaqin kelajakda biz yadro energiyasini yanada ko'proq ishlatilishini ko'ramiz. Atom

energiyalari ishlatilmokda. Quyosh energiyasidan, shamol energiyasidan va yer osti issiq suvlarini isitish uchun ishlatish borgan sari keng rivojlanmokda.

Qizdirish jihozlari isitish tizimlarining asosiy elementi bo'lib, issiqlik eltgich (bug', suv) issiqligini xona havosiga beradi. Qizdirish jihozlari o'z issiqligini xona havosiga konveksiya va nurlatish yo'li bilan o'tkazadi. Qizdirish jihozlari teplotexnik, sanitariya-gigiena va texnikaviy issiqlik talablariga javob berishi lozim.

Teplotexnik talablarning mohiyati shundaki, qizdirish jihozlari issiqlik eltgich issiqligini isitiladigan xona havosiga yaxshiroq o'tkazsin, ya'ni ularning issiqlik uzatish koeffitsientlari yuqori bo'lsin.

Sanitariya-gigiena talablari qizish sirtidagi changni ketkazish oson bo'lishi va butunlay ketkazish mumkinligi. Jihozlar sirtining harorati 95°S dan oshmasligi kerak. Agar harorat bundan oshib ketsa, chang kuyib, metall sirtiga yopishib qoladi.

Texnik-iqtisodiy talablarning qizdirish jihozlariga qo'yadigan shartlari shundan iboratki, qizdirish jihozlarining narxi hamda foydali beriladigan issiqlik birligiga to'g'ri keladigan metall sarfi eng kam bo'lsin, qizdirish jihozlari tayyorlanadigan metall kamyob bo'lmasin. Qizdirish jihozlari xonada egallaydigan yuza va hajm minimal bo'lsin.

Markaziy isitish tizimlarida qizdirish jihozlari sifatida cho'yan radiatorlar, qovurg'ali trubalar, silliq trubalardan qilingan registrlar, konvektorlar, isitish panellari qo'llaniladi. Konveksiya hisobiga issiqlik berishi 75%dan oshadigan jihozlar konvektorlar guruhiga, umumiy issiqlik miqdorining 25% dan kupini nurlatish yo'li bilan beradigan jihozlar radiatorlar guruhiga kiradi.

Markazlashgan isitish tarmog'ini isitish asboblari

Isitish asboblarning isitish yuzasini xisoblashda o'uyidagilar e'tiborga olinadi:

- a) isitish asboblarning sistemaga ulanishi;
- b) suvning tsirkulyatsiyasi va parametrlari;
- v) isitish asboblarning turi.

Yuo'ridagi faktorlar eotiborga olingan xolda suvli ikki trubali isitish sistemalari uchun o'uyidagi formulalardan foydalaniladi:

$$F_{np} = \frac{Q_{np}}{K(t_{cp} - t_b)} \beta_1 \beta_2 \quad [M^2]$$

eki

$$F_{np} = \frac{Q_{xona}}{q_s} \beta_1 \beta_2 \quad [\Delta KM]$$

bu yerda Q_{xona} – isitish asbobining xisoblangan issio'lik yuklamasi;

K – asbobdagi issio'lik uzatish koeffitsienti [$VtG \cdot m^2 \cdot ^\circ S$]

t_{sr} – asbobdagi issio'lik tashuvchining hrtacha temperaturasi

$$t_{cp} = \frac{t_r + t_0}{2} \quad [^\circ C]$$

bu yerda t_r va t_0 – asbobga kirish va chio'ishdagi suvning temperaturasi.

Nazorat uchun savollar:

1. Isitish uskunalariga qo'yiladigan talablar.
2. Issiqlik tashuvchilar.
3. Issiqlik ta'miiti tizimlari xaqida umumiy tushunchalar
4. Zamonaviy markaziy issiqlik ta'minoti tizimlari
5. Issiqlik ta'miiti tizimlari issiqlik tashuvchilari
6. Issiqlik tarmoqlari tarkibi

3-Ma'ruza.

Mavzu: Isitish tizimlarining turlari, tavsiflari. Isitish tizimlarining ishlash joyi va ularning farqi. (2 soat)

O'quv modul birliklari:

1. Talabalarni mavzuga oid bilimlarini faollashtirish. Muammoli savol va vaziyatlar tahlili.
2. Isitish tizimlarining turlari, tavsiflari.
3. Isitish tizimlarining ishlash joyi va ularning farqi.
4. Ma'ruzani xulosalash.

Isitish haqida umumiy ma'lumotlar

Yilning sovuq paytlarida binoning tashqi devorlari, oynasi, eshiklari, yuqori qavatlarining shiplari, pastki qavatlarining pollari orqali issiqlik yo'qolib, xonalar sovib ketadi. Xonalar ichidagi qizigan havo issiqligi tashqi sovuq havoga o'tadi. Tashqi havo bilan ichki havo haroratlari orasidagi farq va tashqi to'siqlar (devorlar, shiplar, pollar)ning yuzasi qancha katta bo'lsa, binodan shuncha ko'p issiqlik yo'qoladi. Binodan issiqlikning yo'qolish miqdori to'siqlarning konstruksiyasi va materialiga ham bog'liq bo'ladi. Masalan, yupqa devor orqali qalin devorga qaraganda, ko'proq issiqlik yo'qoladi. Bir xil qalinlikdagi yog'och va g'isht issiqlikni turlicha o'tkazadi: yog'och devorli bino g'ishtin devorli binoga qaraganda sekinroq soviydi. Buning sababi shuki, ba'zi materiallar — g'isht, tosh, metall issiqlikni ko'proq, ba'zi materiallar (yog'och, kigiz, asbest) kamroq o'tkazadi. Havoning issiqlik o'tkazuvchanligi juda past bo'ladi. Shuning uchun havo qatlami bino konstruksiyalari xuddi shunday materialdan qilingan va shunday qalinlikdagi yaxlit konstruksiyalarga qaraganda issiqlikni kamroq o'tkazadi.

Xonalarda zarur haroratni saqlash va yo'qolgan issiqlikning o'rnini qoplash uchun isitish tizimlari quriladi. Binoni isitish uchun zarur bo'lgan issiqlik qozonlar yoki isitish pechlarida yoqilg'i yoqib hosil qilinadi.

Isitish qozonxonalarida yoqilg'i sifatida toshko'mir, qo'ng'ir ko'mir, mazut, o'tin va ishlab chiqarishdan chiqqan yog'och chiqindilari (qipiq, payraxa), torf, gaz yoqiladi.

1 kg har xil yoqilg'i yoqilganda har xil miqdorda issiqlik ajraladi. 1 kg qattiq yoqilg'i yoki 1m³ gaz to'liq yonganda ajraladigan issiqlik miqdori yoqilg'ining issiqlik ajratuvchanligi deb ataladi va tegishli kkalG/kg yoki kkalG/nm³ bilan ifodalanadi.

Yoqilg'i	Issiqlik ajratuvchanlik kkalG/kg yoki kkalG/nm ³
Toshko'mir	5600—7000
Qo'ng'ir ko'mir	2200—3200
Mazut	10000—11000
O'tin	2700—3700
Torf	2100—2800
Sun'iy gaz	2500—4000
Tabiiy gaz	8400

1 kg har xil yoqilg'i yoqish uchun alangaga har xil miqdorda havo yuborish kerak. O'rtacha olganda yoqilg'i har 1000 kkal issiqlik ajratishi uchun o'txonaga 1,5 m³ havo yuborish kerak. Yoqilg'i yonganda o'txonadagi yuqori harorat hisobiga havodagi kislorod yoqilg'i bilan kimyoviy reaksiyaga kirishadi, bu birikish natijasida issiqlik ajraladi, ana shu issiqlik xonalarni isitadi.

Isitish tizimlari mahalliy va markaziy bo'ladi. Mahalliy tizimlarda issiqlik bevosita isitiladigan xonalarda hosil qilinadi. Pechlar, gaz kaminlari, elektr qizdirgich va h. q lar mahalliy

tizimlar hisoblanadi. Markaziy tizimlarda issiqlik bir joyda hosil qilinadi va u yerdan isitiladigan xonalarga tarqatiladi. Uy, kvartal yoki tuman qozonxonalari yoki issiqlik elektr markazlari (TETS) shunday markaz bo'lishi mumkin.

Markaziy isitish tizimining mahalliy isitish tizimidan quyidagi afzalliklari bor: foydali ish koeffitsienti yuqori; past navli yoqilg'ini yoqish mumkinligi; ekspluatatsiya xarajatlarining kamligi.

Suvning tsirkulyatsiyalanib aylanish usuliga ko'ra markaziy isitish tizimlari suvli tabiiy va sun'iy (nasos yordamida) tsirkulyatsiyalanadigan xillarga bo'linadi. Ustunlarning konstruksiyasiga va ularga qizdirish jihozlarini ulash sxemasiga qarab, isitish tizimlari bir trubali va ikki trubali bo'lishi mumkin. Tarmoqlovchi magistrallarning o'rniga qarab, isitish tizimlar yuqori va pastki tarmoqli xona ichidagi vertikal va gorizontaal tarmoqli xillarga bo'linadi.

Magistral truboprovodlarda issiqlik eltgichning harakatlanish yo'nalishiga qarab, isitish tizimlari tupikli va suv yo'lakay harakatlanadigan xillarga bo'linishi mumkin.

Markaziy isitish tizimlarida issiqlik eltgich sifatida 95—105°S suv, 120—130°S li bug' va 45—70°S li havo ishlatilishi mumkin. Ana shunga qarab, tegishli tizimlar suv bilan isitish, bug' bilan isitish va havo bilan isitish tizimlari deb ataladi.

Havoning issiqlik eltgich sifatidagi afzalligi tez harakatlanishidir. Havo qiziganda siyraklashadi, kengayib, kanallardan yuqoriga osongina ko'tariladi. Issiqligining bir qismini xonaga o'tkazib sovigan havo og'irlashadi va teskari kanallar bo'ylab pastga intiladi. Agar issiqlik eltgich sifatida suv yoki havo ishlatilsa, haroratni tashqi havo haroratiga qarab rostlab turish mumkin. Bug' ishlatilganda esa jihozlarning issiqlik berishini faqat atmosfera bosimidan past bosimdagina murakkab vakuum tizimlar yordamidagina rostlash mumkin.

Markaziy isitish tizimlarining tuzilish printsipli

Markaziy suv bilan isitish tizimlarida suv avval isitish qozonlarida qiziydi, so'ngra uzatuvchi truboprovodlar bo'ylab qizdirish jihozlariga keladi. Qizdirish jihozlari esa bevosita xonalarga o'rnatiladi. Issiqligining bir qismini qizdirish jihozlarining devorlari orqali xona havosiga o'tkazib, sovigan suv teskari truboprovod bo'ylab qozonga qaytib keladi. U yerda yana qizib, qizdirish jihozlariga qarab yo'naladi. Suv qozonlarda quyidagi tarzda qiziydi. Qozon o'txonasida yoqilg'i yondirilganda yoqilg'i qatlamida yuqori (1000°S dan yuqori) haroratda hosil bo'ladi va gazlar ajraladi. Qozon sirtini qamrab o'tadigan nur issiqligi, shuningdeq gazlardan ajralgan issiqlik qozondagi suvni qizdiradi, gazlar esa 200—350°S gacha soviydi va dudburon orqali atmosferaga chiqib ketadi. Bug' bilan isitish tizimlarida bug' qozonlari o'rnatiladi. Ular suvdan bug' hosil qilib beradi. Qozondan chiqqan bug' truboprovodlari bo'ylab qizdirish jihozlariga boradi, ularga issiqligini berib, suvga aylanadi, ya'ni kondensatlanadi. Kondensat trubalar bo'ylab qozonga qaytib keladi, u yerda yana bug'ga aylanadi va yana qizdirish jihozlariga yo'naladi.

Suv bug'i yoki qizigan suv qozondan chiqib, truboprovodlar bo'ylab havo qizdirgichlarga (kaloriferlarga) boradi, u yerda havo qizdirgich devorlari orqali o'z issiqligini tsirkulyatsiyalanayotgan havoga beradi. Havo trubalarning tashqi sirtlarini va qovurg'alarini qamrab turadi. Qizigan havo bevosita isitiladigan xonaga boradi yoki havo yo'llari (kanallar) bo'ylab xonalarga yuboriladi. Qizigan havo issiqligining bir qismini berib, xonani isitadi.

Sanoat binolarida qo'llaniladigan havo bilan isitish tizimi markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan xillarga bo'linadi. Markazlashtirilgan tizimlarda xonalarni ventilyator va kaloriferdan iborat isitish agregatlari isitadi. Ular bir manbadai keladigan issiqlik eltgich bilan ta'minlanadi. Markazlashtirilmagan tizimlarda yoqilg'i bevosita xonalarga o'rnatilgan agregatlarda yoqiladi. Havo ventilyatorlar yordamida harakatlantiriladigan tizimlar sun'iy harakatlantirgichli havo tizimlari, havo zichliklar farqi hisobiga harakatlanadigan tizim tabiiy harakatlantiriladigan havo tizimi deb ataladi. Keyingi tizim turar joy binolarida qo'llaniladi. Turar joylar, jamoat va sanoat binolarini issiqlik bilan ta'minlash uchun qattiq yoqilg'i yoqiladigan «Universal 6» va «Energiya 6» seksion cho'yan qozonlari keng qo'llaniladi. Bu


qozonlar tabiiy va sun'iy tsirkulyatsiyali isitish tizimlari uchun o'rnatiladi. Bu qozonlar gaz bilan ham ishlashi mumkin. Lekin bunda qizish sirtining issiqlik zo'riqishi ancha pasaytirilishi kerak chunki aks holda qozon ishdan chiqishi, sektsiyalar yorilib ketishi mumkin. Bunga sabab shuki, qozon sektsiyalari cho'yan devorlarining metali issiqlikdan o'ta zo'riqib ketadi. Qizish sirtining issiqlikdan zo'riqishi 1-jadvalda ko'rsatilgan miqdorlardan oshmaydigan «Universal 6» va «Energiya 6» qozonlarini gaz qozonxonalariga o'rnatishga yo'l qo'yiladi. Qozonlarning yo'l qo'yiladigan issiqlikdan zo'riqishi

1-jadval

Qozon	Qizish sirtining issiqlikdan kengayish yo'l qo'yiladigan miqdori, kkalG'soat	
Energiya 6	6000	12000
Universal 6	6600	12000

«Universal 6» va «Energiya 6» qozonlari isitish tizimlaridagi suvning statik bosimi 6 kgkG'sm² gacha va maksimal qizish harorati 115°S gacha bo'lganda ishlashi mumkin.

Qozonni yig'ishdan oldin ilgari tayyorlab qo'yilgan beton poydevor ustiga oddiy xom g'ishtdan poydevor qilinishi lozim. Poydevor ko'tarilgandan so'ng kulxona devori kolosnik balkalarigacha ko'tariladi. Kulxona oddiy xom g'ishtdan, o'txona esa o'tga chidamli g'ishtdan teriladi. G'ishtlar terilgandan 2—3 kun o'tgach o'txona devorlari ustiga qozon sektsiyalari o'rnatiladi. Qozon sektsiyalari rez basiz nippellar yordamida quyidagi tartibda biriktiriladi. Alif moyga qorilgan surtki surkalgan va oldindan moslab qo'yilgan nippellar sektsiyalar kallaklaridagi nippel teshiklariga tiqiladi va yog'och bolg'a bilan ohista urib qoqiladi. So'ngra nippelning bo'sh uchiga alif moyda qorilgan surtki shimdirilgan asbest shnur o'raladi va navbatdagi sektsiya kiydiriladi. Shundan so'ng sektsiyalar bir yo'la pastki va yuqori kallaklar bo'yicha montaj boltlari bilan qotiriladi. Bunda shuni hisobga olish kerakki, qattiqlashdan so'ng sektsiyalar orasida ko'pi bilan 2 mm masofa qolsin. Xuddi shu tartibda oldin o'ng, so'ngra chap paketlar yig'iladi. Yig'ib bo'lingandan so'ng montaj boltlari o'rniga doimiy tortish boltlari qo'yib qattiqlanadi. Yig'ilgan qozon gidravlik bosim ostida sinab ko'riladi. Bu bosim 1,5 ish bosimiga teng, lekin 4 kgkG'sm² dan kam bo'lmasligi kerak Qozon bosim ostida 5 min qoldiriladi. Bunda sektsiyalarning devori terlamasligi va qozon birikmalaridan suv sizmasligi lozim. Agar qozon sektsiyalari terlasa yoki birikmalardan suv sizsa, qozonni qismlarga ajratib, qayta yig'ish kerak. Gidravlik sinovdan keyin qozonga g'isht terib chiqiladi. «Energiya 6» qozonining printsiptial sxemasi 1-rasm da keltirilgan. Ish unumdorligi 350000 kkalG'soat dan yuqori bo'lgan barcha suv isitish qozonlari diametri 38 mm li kamida ikkita saqlash klapani bilan ta'minlanishi lozim.



1-rasm. «Energiya 6» suv isitish qozonining sxemasi:

1 - tushirish trubasi, 2 — tushirish krani, 3 — yuqori troyniq 4 - termometr, 5 — manometrlar 6,22 — teskari klapanlar 7, 14, 19 — zadvijskalar, 8— aylanib o'tish tarmog'i 9 — ventil , 10 — saqlash klapani, 11 — tiqin, 12 — pastki troyniq 13 — rakovina 15—otvod 16 — qozon sektsiyasi 17 — nasos oldidagi aylanma tarmoq 18 — tsirkulyatsiya nasosi, 20— kirtutkich 21 — suv to'ldirish ventili.

Nazorat savollari:

1. Isitish tushunchasi.
2. Markaziy isitish tizimlarining tuzilishi.
3. Markaziy isitish tizimlarining afzalliklari.
4. Mahalliy isitish tizimlarining afzalliklari.

4-Ma`ruza.

Mavzu: Isitish uskunalarini isitish uskunalariga qo'yiladigan talablar isitish uskunalarining turi va konstruksiyalari. Isitish tizimini issiqlik ta'minoti quvurlariga ulanish sxemalari. (2 soat)

O'quv modul birliklari:

1. Talabalarni mavzuga oid bilimlarini faollashtirish. Muammoli savol va vaziyatlar tahlili.
2. Isitish uskunalariga qo'yiladigan talablar isitish uskunalarining turi va konstruksiyalari.
3. Isitish tizimini issiqlik ta'minoti quvurlariga ulanish sxemalari.
4. Ma`ruzani xulosalash.

Qizdirish jihozlari isitish tizimlarining asosiy elementi bo'lib, issiqlik eltgich (bug', suv) issiqligini xona havosiga beradi. Qizdirish jihozlari o'z issiqligini xona havosiga konvektsiya va nurlatish yo'li bilan o'tkazadi.


Markaziy isitish tizimlarida qizdirish jihozlari sifatida cho'yan radiatorlar, qovurg'ali trubalar, silliq trubalardan qilingan registrlar, konvektorlar, isitish panellari qo'llaniladi. Konvektsiya hisobiga issiqlik berishi 75%dan oshadigan jihozlar konvektorlar guruhiga, umumiy issiqlik miqdorining 25% dan ko'pini nurlatish yo'li bilan beradigan jihozlar radiatorlar guruhiga kiradi.

Jihozlarning qizish sirtlari ekvivalent kvadrat metrlar *EKM* (o'lchamlari ekvivalent, metr— issiqlik eltgich bilan havoning o'rtacha haroratlari farqi $Dq_{64,5^\circ S}$ bo'lganda qizdirish jihozining 1 soatda 435 kkal issiqlik beradigan sirtining shartli kattaligi) larda hisoblanadi

Radiatorlar. Radiatorlar ayrim sektsiyalardan nippellar vositasida yig'iladi, Nippellarning bir tomonida chap, ikkinchi tomonida o'ng rezba bo'ladi. Nippellar ayni vaqtda ikki qo'shni sektsiyada yuqori va pastdan buraladi va maxsus kalit bilan burab, sektsiyalar bir-biriga taqaladi. Eng chetki sektsiyalarning nippel teshiklariga yuqori va pastdan berk tiqin yoki jihozni truboprovod ulash uchun 15—20 mm li teshigi bo'lgan tiqinlar buraladi.

M140, M140AO, RD26 va M90 radiatorlari eng keng tarqalgan. M140 radiatori (2-rasm,a) va M140AO radiatori (2-rasm,b) ikki kolonnali bo'lib, M 140 AO

radiatorining M140 radiatoridan farqi shundaki, kolonnalar orasidagi bo'shliqqa sakkizta qovurg'a joylashtirilgan bo'lib, ular issiqlik berish darajasini



2-rasm. Radiatorlar:

a — Mq140,

b — M140—AO.

o'shiradi. RD26 va M90 radiatorlari M140 radiatoridan uncha chuqurmasligi (chuqurligi 90 mm ga tengligi) bilan farq qiladi.

Radiatorlarning texnikaviy xarakteristikallari 2-jadvalda keltirilgan.

Radiatorlardan issiqlik eltgichning ish bosimi 6 kgG'sm² dan oshmaydigan barcha isitish tizimlarida foydalanish mumkin.

2-jadval


Radiatorlarning texnikaviy xarakteristikallari

Ko'rsatkichlar	M-140	M140AO	RD90S	M90
Qurilish chuqurligi, mm	140	140	90	90
To'liq balandligi, mm	582	582	582	582
Bir sektsiyaning qurilish eni, mm	96	96	96	96
Sektsiyaning fizik sirti, m ³	0.25	0.299	0.203	0.2
Sektsiyaning qizishsirti, ekm	0.31	0.35	0.275	0.261
Sig'iruvchanlik 1, 1 ekm ga	4.6	4.07	4.3	4.36

Qovurg'ali truba va registrlar. Qovurg'ali trubalar kul rang cho'yandan 1; 1,5 va 2 m uzunlikda, dumaloq qovurg'ali qilib tayyorlanadi. Qovurg'ali trubalar truboprovodlarga cho'yan flanetslar yordamida ulanadi. Arzon turishiga qaramay, qovurg'ali trubalar uncha keng qo'llanilmaydi, chunki ularni changdan tozalash qiyin, uncha ko'rkam emas va qovurg'alari mo'rt bo'ladi. Sanitariya gigiena sifatлари past bo'lgani uchun ularni turar joylarga o'rnatish taqiqlanadi. Ular asosan sanoat binolarida qo'llaniladi.

Sanoat binolarini va ayniqsa, qovurg'ali trubalar o'rnatib bo'lmaydigan serchang ishlab chiqarish xonalarini isitish uchun, ko'pincha, tashqi diametri 76, 89, 102 va 108 mm li silliq po'lat trubalardan tayyorlangan jihozlar qo'llaniladi. Bunday jihozlar registrlar tarzida tayyorlanadi (3-rasm).

Konvektorlar. Keyingi vaqtlarda isitish tizimlarida konvektorlar keng qo'llanilmoqda. Radiatorlarga qaraganda ularning quyidagi afzalliklari bor: «havoga» qarab bu jihozlarning issiqlik berishini klapan yordamida rostlash mumkin (klapani istalgan vaziyatda qurish mumkin): ishlarni industrlashtirish darajasi yuqori, montaj qilishga kam mehnat sarflanadi va isitish tizimining narxi pasayadi. Konvektorlar radiatorlarga tsaraganda ko'proq gidravlik bosimga chidaydi. Tizimlarga uncha ko'p metall ketmaydi.



3-rasm. Tekis trubalardan qilingan registrlar a-payvand, b-kalta trubalarga montaj qilingan.

Konvektorlarning atrofida panelli yoki nurlatishli isitishga qaraganda ko'proq konvektiv havo oqadi, natijada konvektorlar yaqinidagi

chang zarralarini havo oqimiilashtirib ketadi. Ana shu omil konvektorlarning kamchiligi hisoblanadi.


Konvektorlarning «Komfort», «Progress» va «Akkord» markalari ishlab chiqarilmoqda.

«Komfort» konvektorlari turar joy, jamoat va ma'muriy binolarni isitish uchun mo'ljallangan. Ularda issiqlik eltgich harorati 150°S gacha va bosim 10 kgG'sm² gacha bo'lishi lozim. Sanoatimiz bunday jihozlarning ikki turini: devorga osib qo'yiladigan va polga o'rnatiladigan xillarini ishlab chiqaradi.

«Komfort» konvektori (4-rasm) metall korpus 1, qizdirish elementi va havo klapani 2 dan iborat. Korpus 1 mm qalinlikdagi listaviy po'latdan yasaladi. Qizdirish elementini changdan va boshqa iflosliklardan tozalash uchun korpus ajraladigan qilinadi. Yon devorlardagi bukmalarda konvektorlarni devorga yoki polga mahkamlash uchun mo'ljallangan teshiklar bo'ladi. Shu bukiklarning o'zi korpusning ajraladigan metall panellarini mahkamlash uchun ham xizmat qiladi.

Qizdirish elementi 3 po'lat trubalardan iborat bulib, ularga qovurg'aplastinalar o'tkazilgan. Qovurg'aplastinalar 0,8 mm qalinlikdagi listaviy po'latdan 6X120 mm o'lchamli qilib tayyorlanadi. Plastinalar orasidagi tirqish 5; 7, 5; 10 mm.

Havo klapani 2 jihozning issiqlik berishini rostlab turishga imkon beradi. Havo klapanini istalgan vaziyatga qo'yish, ya'ni to'liq ochish, qisman ochish yoki yopib tso'yish mumkin. Klapan yopib qo'yilganda «Komfort» konvektorining issiqlik berishi to'rt marta kamayadi.




4-Rasm. «Komfort konvektori» 1-korpus, 2-havo klapani, 3-isitish elementi, 4-shtutser

Konvektorning «havoga» qarab issiqlik berishini rostlash montaj qilish va ekspluatatsiya mobaynida eng arzon va qulay oqava isitish tizimlarini qo'llashga imkon beradi.

Bunday tizimlarda issiqlik eltgichga qarab rostlash uchun mo'ljallangan armaturani o'rnatishga hojat qolmaydi.

«Komfort» konvektorlarining ikki xili: o'tishli va o'tishsiz xillari bor. Konvektorning birinchi xilida bir tomonida shtutser 4 bo'lib, unda isitish tizimini ulash uchun kalta rez ba bor. Ikkinchi tomonida issiqlik eltgich o'tadigan trubkalarni o'zaro ulaydigan kollektor bor. Ikkinchi xil konvektorning bir tomonida isitish tizimlariga ulash uchun shtutser, ikkinchi tomonida boshqa konvektorga ulash uchun mo'ljallangan uzun rez bali shtutser bor.

«Progress» konvektorining (5-rasm) uzunligi 400 dan 1200 mm gacha, balandligi 200 mm. Bunday konvektor yengillashtirilgan turdagi diametri 15 yoki 20 mm li ikkita vodoprovod trubasidan hamda jihozning qizdirish sirtini hosil qiladigan qovurg'aplastinalardan iborat. Presslab o'tkazish hisobiga qovurg'aplastinalar trubalarga




5-rasm. «Progress» konvektori.

tegib turadi. Qovurg'aplastinalar sovuqlayin prokatlab olingan 0,8 mm li lenta yoki listaviy po'latdan yasaladi. Konvektorlardan qovurg'alarining qadami 20 mm, trubalarning o'qlari orasidagi masofa 130 mm.

«Progress» konvektorlari ham ikki modifikatsiyada: bir tomoniga bo'yincha o'rnatilgan o'tishsiz va oraliq xillarda ishlab chiqariladi. Oraliq konvektorlar qo'shimcha jihozlar ulash uchun xizmat qiladi. Konvektorlar issiqlik berishi issiqlik eltgichga qarab rostlanadigan qilib ishlab chiqarilishi mumkin.

«Akkord» konvektorlari (6-rasm) elektr yoyi bilan payvandlab yasaladigan ikkita trubadan iborat bo'lib, ularga P simon qovurg'aplastinalar o'tkazilgan. Qovurg'aplastinalar trubalarga zich tegib turishi kerak. Buni ta'minlash uchun plastinalarning diametri trubalarning diametridan kichikroq qilingan. Konvektorlarning sirtiga PF115 emali qoplangan. Konvektorlardan normal foydalanish uchun quyidagilarni bajarish shart: konvektorlar ustiga

biror to'so' yoki tokchalar qilish taqiqlanadi, chunki ular jihozning issiqlik berishini pasaytirib yuboradi; qovurg'aplastinalar deformatsiyalanmasligi uchun konvektorni og'ir narsalar bilan «urish taqiqlanadi, metallni korroziyadan saqlash uchun konvektor detallarining tashqi va ichki




6-rasm. «Akkord» konvektori.

sirtlarini bo'yab turish kerak Isitish mavsumi boshlangunga qadar konvektorni changdan yaxshilab tozalash lozim.

Kaloriferlar va isitish agregatlari

Kaloriferlar isitish tizimlarida havonn qizdirish uchun, sanoat, turar joy va jamoat binolaridagi ventilyatsiya tizimlarida va havoni kondensatsiyalash uchun qo'llaniladi. Shakli jihatidan kaloriferlar plastinkali va o'rama spiralli, issiqlik eltgichning harakatlanishiga qarab, bir yo'lli va ko'p yo'lli xillarga bo'linadi. Kaloriferlar havosi mexanikaviy va tabiiy harakatlantiriladigan tizimlarga o'rnatiladi.



7-rasm. Kaloriferlar: a — QFS modelidagi bir yo'lli plastinkali, b — KMTS modelidagi ko'p no'lli plastinkali, v — KFSO modelidagi spiral o'rama.

Bir yo'lli plastinkali kaloriferlarning (7-rasm, a) ikki modeli: o'rta QFS va katta—KFB modellari ishlab chiqariladi. KFS kaloriferlarida havo harakatining yo'nalishi bo'yicha uch qator, KFB kaloriferlarida esa to'rt qator truba bo'ladi. Plastinkali kaloriferlarning qovurg'asi 0,5 mm qalinlikdagi listaviy po'latdan yasaladi, plastinkalar orasidagi masofa — 5 mm, kaloriferlarning qopqoqlari payvandlab tayyorlangan, korpusi ajralmaydi. Kaloriferlar bug' va suv uchun mo'ljallangan.

Ko'p yo'lli plastinkali kaloriferlarning (7-rasm, b) ikki modeli: o'rta — KMS va katta — KMB modellari ishlab chiqariladi. Havoning harakat yo'nalishi bo'yicha QMS kaloriferlarida uch qator, KMB da to'rt qator truba bo'ladi. Qizish sirtini hosil qilish uchun qovurg'aplastinkalar bir yo'lli plastinkali kaloriferlardagi kabi o'tkazilgan. Ma'lumki, bir yo'lli kaloriferlarda issiqlik eltgich konvektorda barcha trubalarga bir vaqtda tarqaladi. Ko'p yo'lli koivektorlarda esa konvektorlar ichidan po'lat plastinkalar bilan ayrim bo'lmalarga ajratilgan, natijada issiqlik

eltgich bosqichma-bosqich harakatlanadi. Shu tufayli, issiqlik eltgich trubalarda tez harakatlanib, issiqlik uzatish koeffitsienti oshadi va bu bilan kaloriferning teplo-texnikaviy ko'rsatkichlari yaxshilanadi. Issiqlik eltgichning trubalarda tez harakatlanishi ularni muzlab qolishdan saqlaydi. Ko'p yo'lli kaloriferlarda issiqlik eltgich sifatida suv ishlatish kerak

O'ramaspiralli kaloriferlarning ham (7-rasm, v) ikki modeli: o'rta KFBO va katta — KFBO modellari ishlab chiqariladi. Plastinkali kaloriferlardan farqli ravishda o'ramaspiralli kaloriferlarning qizish sirti issiqlik eltgich yuradigan trubalarga 0,5 mm li po'lat lentalarini o'rash yo'li bilan hosil qilinadi. O'rash jarayonida lenta burmalar hosil qiladi. Lenta trubaga sovuqlayin tarang qilib o'raladi, natijada truba bilan lenta bir-biriga zich tegib turadi. O'ramaspiralli kaloriferlar plastinkali kaloriferlarga qaraganda havoning o'tishiga katta qarshilik qiladi. Havoning harakat yo'nalishi bo'yicha KFBO kaloriferlarida uch qator, KFBO da to'rt qator truba bo'ladi. Katta va o'rta modeli kaloriferlarning trubalari shaxmat tartibida joylashtirilgan. KFBO va KFBO kaloriferlari bir yo'lli qilib ishlab chiqariladi. Ularda issiqlik eltgich sifatida bug' va suv ishlatilishi mumkin.


Ko'p yo'lli kaloriferlarning trubalari gorizontal vaziyatda o'rnatiladi. Kaloriferlar trubalarni vertikal vaziyatda o'rnatilganda kaloriferlarning qopqoqlariga teshiklar qilinishi va kranlar o'rnatilishi kerak. Bular havoni chiqarib yuborish va har qaysi kalorifer bo'lmasidan suvni to'kish uchun zarur. Ishlab chiqariladigan barcha kaloriferlar issiqlik eltgichning 10 kgG'sm² ish bosimiga mo'ljallangan. Ular 12 kgG'sm² bosimda sinaladi.

Trubasimon qizdirgichli SFO elektr kaloriferlari havoli isitish tizimlarida havoni 100°S gacha isitish, ventilyatsiya tizimlarida sun'iy iqlim yaratish va quritish qurilmalarida ishlash uchun mo'ljallangan. Bunday elektr kaloriferlar listaviy po'latdan yasalgan kojux va trubali qizdirish elementlaridan iborat. Qizish sirtini oshirish uchun qizdirish elementlarining trubalariga alyuminiy plastinkalardan qovurg'alar qilingan. Kalorifer kojuxiga mustaqil rostlanadigan to'rtta sektsiya o'rnatiladi. Kaloriferni umumiy quvvatining 100; 75; 50 va 25% pog'onalarida ishlatish mumkin. Chiqayotgan havoning zarur harorati EKT-1 elektr kontaktli termometrlar yordamida avtomatik tarzda rostlanadi. Kalorifer dastlab ishga tushirilganda, barcha qizdirish elementlari ishlaydi. Xona harorati zarur haroratdan oshganda kaloriferlarning bir sektsiyasi uziladi, keyinroq yana ikkinchi sektsiyasi uziladi va h: q Chiqayotgan havo harorati pasayishi bilan qizdirish elementlari teskari tartibda ulanadi.

Isitish agregatlari havo bilan isitish tizimlari uchun mo'ljallanadi va har xil miqdorda issiqlik ajratadigan qilib ishlab chiqariladi. Isitish agregatlari uchun issiqlik eltgich sifatida bug' yoki qizdirilgan suv ishlatilishi mumkin.

Polga o'rnatiladigan STD300M isitish agregati (8-rasm, a) hisobiy issiqlik yo'qotishi 300000 kkalG'soat

bo'lgan sanoat binolarini havo bilan isitish uchun mo'ljallangan.



8-rasm. Isitish agregatlari:

a — STD300M, b — STD100, v — GSTM70M

Agregat korpusdan, ikki tomonlama so'radigan ventilyatordan, kalorifer va konfuzordan iborat. Ventilyatorni ponasimon tasmali uzatma orqali elektr dvigatel aylantiradi. O'sma STD100 isitish agregati (8-rasm, b) hisobiy issiqlik yo'qotishi

100 000 kkalG'soat bo'lgan ishlab chiqarish va yordamchi xonalarni havo bilan isitish uchun mo'ljallangan. Agregat korpus, to'rt parrakli o'qiy ventilyator, kalorifer, elektr dvigatel va konfuzordan iborat.

O'sma GSTM70M isitish agregati (8-rasm, v) korxona tsexlari va yordamchi xonalarni havo bilan isitish tizimlari uchun mo'ljallangan. Agregatning issiqlik ajratuvchanligi 70000


kkalG'soat. Agregat bevosita elektr dvigatelga o'rnatilgan o'qiy ventilyator, kalorifer, rostlanadigan teshikli kojuxdan iborat.

Sanoatimiz bu agregatlardan tashqari, o'rama spiralli kaloriferlari bo'lgan osma isitish agregatlarini ham ishlab chiqaradi. Bunday agregatlarning APVS50G'30, APVS70G'40, APVS110G'80, APVS200G'140 va APVS280G'190 markalari ishlab chiqarilmoqda. Kalorifer markasidagi birinchi ikki raqam issiqlik eltgich bug' bo'lgan holdagi issiqlik ajratuvchanlikni, keyingi ikki raqam esa issiqlik eltgich suv bo'lgan holdagi issiqlik ajratuvchanlikni ko'rsatadi. Masalan, APVS 70G'40 isitish agregatida issiqlik eltgich sifatida bug' ishlatilsa, agregatning issiqlik ajratuvchanligi 70 000 kkalG'soat, agar issiqlik eltgich sifatida suv ishlatilsa 40000' kkalG'soat bo'ladi.

Isitish tizimlarining issiqlik ta'minoti quvurlariga ulanish sxemasi.

Tabiiy tsirkulyatsiyali isitish tizimining printsiptial sxemasi 9-rasmda ko'rsatilgan. U qozon 1 (yoki suv isitgich), uzatuvchi 2 va teskari 7 truboprovodlar, qizdirish jihozlari 5 va kengaytiruvchi idish 3 dan iborat. Qozonda qizigan suv uzatuvchi truboprovod va ustunlar bo'ylab qizdirish jihozlari boradi, issiqligining bir qismi binoning tashqi to'siqlari orqali yo'qoladigan issiqlikning o'rnini 1 qoplaydi, so'ngra teskari truboprovod bo'ylab qozonga qaytadi. Bu yerda yana zarur haroratgacha qiziydi va tsikl yana shu tarzda takrorlanaveradi.

Isitish sistem asida suv gravitatsion bosim ta'sirida harakatlanadi. Bu bosim truboprovod tarmog'idagi qarshiliklarni yengish uchun sarflanadi. Suvning truba devoriga ishqalanishi shuningdek tizimda mahalliy qarshiliklarning borligi bu qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Mahalliy qarshiliklarni truboprovodlarning tarmoqlari va burilish joylari, armatura va qizdirish jihozlarning o'zi hosil qiladi. Truboprovodda qancha katta qarshilik paydo bo'lsa, gravitatsion bosim ham shuncha katta bo'lishi kerak. Tizimda suvning



ta'minlaydigan gravitatsion bosim issiq va sovigan suv ustunlari bosimlari fvrqidan iborat. U tsirkulyatsion bosim kattaligini beradi.

9-rasm. Yuqori tarmoqli va suv tabiiy tsirkulyatsiyalanadigan suv bilan isitish tizimi
1 — qozon , 2 — uzatuvchi truboprovod 3 - kengaytirish idishi, 4,6 — stoyaklar, 5 — qizdirish asbobi, 7 — teskari truboprovod

tsirkulyatsiyalanishini $H = h(\rho_c - \rho_u)$ Bu yerda H – gravitatsion bosim, mm. suv. ust. yoki kgkG'sm2 h- - qozon markazidan eng past joylashagan qizdirish asbobi markazigacha bo'lgan masofa, m

bosh ustun bo'ylab yuqoriga ko'tariladi va, odatda, bino

10-rasm. Yuqori tarmoqli va suv tabiiy tsirkulyatsiyalanadigai ikki trubali suv bilan isitish

chordog'iga joylashtiriladigan magistral truboprovod bo'ylab ustunlar va tarmoqlar bo'yicha qizdirish jihozlariga boradi. Suv qizdirish jihozlaridan teskari

Yuqori tarmoqli, ikki trubali suv bilan isitish tizimi (10-rasm). Bu tizimda suv qozondan har bir jihozga ikkita truboprovod — uzatuvchi va teskari truboprovod keladi. Buning uchun bu tizim ikki trubali tizim deb ataladi.

Pastki tarmoqli, ikki trubali suv bilan isitish tizimi (11-rasm). Bunday tizim yuqorida aytilgan shunisi bilan farq qiladiki, uzatuvchi truboprovod pastda, tarmoqlar va ustunlar bo'yicha teskari magistralga tushadi va undan qozonga boradi. Bunday isitish tizimidagi tizimdan ya'ni teskari truboprovod bilan bir qator qilib o'tkaziladi, suv uzatuvchi ustunlar bo'ylab pastdan yuqoriga harakatlanadi. Suv qizdirish jihozlari orqali o'tib, teskari tarmoqlar va ustunlar bo'yicha teskari magistralga va undan qozonga tushadi.


Mahalliy tizimlarni issiqlik tizimlariga ulash

Isitish tizimlarini issiqlik tur runligiga hamda ayrim elementlarining mustahkamligiga


so'rilmaydi. Bundan tashqari, isitish tizimlarining gidravlik va ancha yuqori talablar qo'yiladi. tarmoqlariga ulash paytida tarmoqning teskari trubasidagi bosim isitish tizimidagi statik bosimdan kattaroq bo'lishi kerak. Bu holda tizimga havo

Mahalliy sharoitga qarab, isitish tizimlari issiqlik tarmoqlariga suv qizdirgich orqali (mustaqil ulash) yoki tizimda sovigan suvning bir qismini issiqlik tarmoqlariga keladigan tarmoq suviga qo'shish yo'li (bog'liq ulash) bilan ulanadi. Mustaqil ulashda (12-rasm) issiqlik eltgich tashqi issiqlik tarmoqlari 1 dan


suv qizdirgich 2 ga keladi va undagi suvni qizdirib, yana issiqlik tarmog'iga qaytadi. Suv qizdirgichda 105—95 yoki 85°S gacha qizigan suv isitish tizimiga tushadi.



11-rasm. Pastki tyarmokli va tabiiy tsirkulyatsiyali ikki trubali suv bilan isitishning tipik sxemasi.



Bu sxemaga ko'ra mahalliy isitish tizimida suv qizdirgich orqali tsirkulyatsiyalanadi. Suv tabiiy yoki nasos yordamida tsirkulyatsiyalanadigan ikki trubali va bir trubali tizimlarni mustaqil sxemada ulash mumkin. Bog'liq tizimda parametrlari yuqori bo'lgan issiqlik eltgich yuradigan issitslik tarmoqlariga isitish tizimlarini ulash uchun binoga kiraverishga elevator uzeli o'rnatiladi (13-rasm). Mahalliy isitish tizimi ana shu elevator uzeligiga




ulanadi. Harorati 105°S dan yuqori bo'lgan suv oqimi elevator 10 ga tushadi, u yerda mahalliy tizimdan keladigan suvning bir qismi bilan aralashadi. Aralash suvning zarur harorati zadvijskalar 2 bilan rostlab turiladi.

12-rasm. Issiqlik tarmoqlariga mustaqil ulash
1—uzatuvchi truboprovod, 2 — suv isitkich.
3— kengaytirish idishi, 4— tsirkulyatsiya nasosi, 5 - teskari truboprovod.

Tizimdan chiqqan teskari suv o'lhagich 13 orqali issiqlik tarmog'iga o'tadi. Suv o'lhagich issiqlik o'lhagich 11 ga shtutser 7 lar bilan ulangan.

Suv haroratini nazorat qilib turish uchun elevator oldidan, elevatoridan keyin va teskari tarmoqqa bittadan termometr o'rnatiladi. Tizimdagi bosim uchta manometr bilan tekshirib turiladi, ularning hammasi bir xil sathda o'rnatilishi kerak Qirish trubasiga rostlagich 14 o'rnatiladi. U suv sarfini birdek ushlab turady. Ayrim hollarda bosim rostlagichi 15 o'rnatiladi. Tarmoqqa



13-Mahalliy isitish tizimlarining boshqarish qismi

1- uch yo'lli kran, 2 – zadvizka, 3 – tiqinli kran, 4, 12 – kirtutkichlar, 5 – teskari klapan, 6 – drossel shayba, 7 – issiqlik o'lhash uchun shtutser, 8 termommetr, 9 – manometr, 10 – elevator, 11 – issiqlik o'lhagich, 13 – suv o'lhagich, 14 – suv sarfi rostlagichi, 15 – bosim rostlagichi, 16 – ventillar, 17 – aylanma tarmoq

tushadigan loyqani tutish uchun gryazeviklar 4 va 12 (yoki teskari tarmoqqa bitta gryazevik) o'rnatiladi. Suv sarfini rostlab turish uchun rostlagich 14 dan keyin drossel shayba 6 o'rnatiladi.

Agar tizimning elevator uzeli 11 dan oldingi bosim $1,5 \text{ kgkG} \cdot \text{sm}^2$ dan, teskari trubadagi bosim esa $5 \text{ kgkG} \cdot \text{sm}^2$ dan past bo'lmasa, isitish tizimini elevator orqali ulash mumkin.

Ayrim hollarda suv nasos yordamida aralashib turadigan bog'liq ulash tizimi qo'llaniladi. Bu sxemada suv oqimli elevator o'rniga nasos o'rnatiladi. U ikki trubali isitish tizimlarida ham, bir trubali isitish tizimlarida ham optimal rejimlar hosil qilishga imkon beradi.

Isitish tizimlarini issiqlik tarmoqlariga bog'liq sxema bo'yicha ulashda kengaytirish idishi o'rnatilmaydi. Bu holda deaerator baki va issiqlik tarmog'ining o'zi kengaytirish idishi sifatida qo'llaniladi.

Nazorat savollari:

1. Qizdirish jihozlari.
2. Qovurg'ali trubalar va ularning ishlash tartibi.
3. Registrlar va ularning ishlash tartibi.
4. Konvektorlar va ularning ishlash tartibi.
5. Kaloriferlar va ularning ishlash tartibi.
6. Isitish agregatlari va ularning ishlash tartibi.
7. Mahalliy tizimlarni issiqlik tizimlariga ulash.

5-Ma'ruza.


Mavzu: Suvli isitish tizimlari. Umumiy xolati. Sinflarga bo'linishi. Uning tuzilishi, isitish tizimlardagi tsirkulyatsion bosim. (2 soat)

O'quv modul birliklari:

1. Talabalarni mavzuga oid bilimlarini faollashtirish. Muammoli savol va vaziyatlar tahlili.
2. Suvli isitish tizimlari. Umumiy xolati.
3. Sinflarga bo'linishi. Uning tuzilishi, isitish tizimlardagi tsirkulyatsion bosim.
4. Ma'ruzani xulosalash.

Suv sun'iy tsirkulyatsiyalanadigan isitish tizimi

Suv sun'iy (nasos yordamida) tsirkulyatsiyalanadigan isitish tizimlari suv tabiiy tsirkulyatsiyalanadigan isitish tizimlaridan shunisi bilan farq qiladiki, truboprovodlar tarmog'iga suvning tsirkulyatsiyalanishini ta'minlaydigan nasos o'rnatiladi, natijada bu tizimlarning ta'sir doirasi ancha kengayadi, truboprovodlarning diametrlari kichrayadi va tizimlarni issiqlik eltgich parametrlari yuqori bo'lgan issiqlik stantsiyalariga



ulashga imkon tug'iladi.

Suv nasos yordamida tsirkulyatsiyalanadigan markaziy isitish tizimlarida (14-rasm) qozonda qizigan suv nasos 9 ta'sirida uzatuvchi magistral 2 bo'ylab qizdirish jihozlari 6 ga boradi. Qizdirish jihozlarida sovigan suv teskari truboprovodlar 7 va 8 bo'ylab

14-rasm. Yukori tarmoqli va nasos tsirkulyatsiyali ikki trubali tizimning sxemasi: 1 — qozon, 2 — yuqori magistral, 3 — kengaytirish idishi, 4 — havo yig'gich, 5 — uzatuvchi issiq suv stryaklari, 6 — isitish jihozlari, 7 — teskari ustunlar, 8 — teskari yig'ma magistral, 9 — markazdak qochma nasos.

tsirkulyatsiya nasosiga, keyin qozonga qaytadi. Kengaytiruvchi idish 3 isitish sistemasida doimiy bosim bo'lishi ta'minlaydi. Bundan tashqari u qiziganda kengaygan suvni ham qabul qiladi. Kengaytiruvchi idishdan keladigan kengaytiruvchi va tsirkulyatsiya trubalari teskari magistralga (nasos oldiga) ulanadi. Ulash nuqtalari orasidagi masofa kamida 2 m bo'lishi kerak. Kengaytiruvchi idish tubining belgisi tizimning eng yuqori nuqtasidan kamida 800 mm baland bo'lishi lozim.

Bir necha bino bitta issiqlik manbaiga ulanadigan hollarda kengaytiruvchi idish eng baland binoga o'rnatiladi. Shu bilan birga kengaytiruvchi va tsirkulyatsiya trubalari teskari

magistralga shunday ulanishi kerakki, binolardan istalganini uzib qo'yganda ham kengayuvchi idish uzilmay turishi kerak.

Tizimdan havo chiqib ketishi oson bo'lishi uchun havo bilan suvning bir tomonga yurishini ta'minlash kerak. Buning uchun uzatuvchi magistral eng uzoq ustun tomonga balandlatib o'tkaziladi. Tizimdan havo chiqib ketishi uchun eng yuqori joylarga oqava havo yig'gich 4 o'rnatiladi. Ustunlarni tizimdan uzish uchun ularning tagiga sal nikli o'tish kranlari, jihozlarga yaqin truboprovodlarga esa rostlash kranlari o'rnatiladi.

Sun'iy tsirkulyatsiyali isitish tizimlarining shovqinsiz ishlashini ta'minlash uchun issiqlik eltgich truboprovodlarda quyidagi qiymatlardan oshmaydigan tezlikda harakatlanishi kerak:

Truboprovod diametri, mm	6 dan 15 mm gacha	15	20	25	32	40	50	50 dan ortiq
Issiqlik eltgichning harakat tezligi, mG'sek	0.3	0.3	0.3	0.65	0.8	1.0	1.5	1.5


Suv uzluksiz tsirkulyatsiyalanib turishi uchun markazdan qochirma nasos ham uzluksiz ishlashi lozim. Shuning uchun suv nasos yordamida tsirkulyatsiyalanib turadigan tizimlarga ikkita nasos o'rnatiladi. Ulardan biri zaxira (rezerv) hisoblanadi. Nasoslar gall-magal ishlaydi.

Suvning sovishi hisobiga nasosli isitish sistemalarida jihozlar va trubalarda ham tabiiy bosim paydo bo'ladi. Elektr energiya bo'lmay, nasoslar to'xtab qolgan taqdirda ham ana shu tabiiy bosim hisobiga suv tizimda sekin aylanaveradi, natijada qozondagi suvning harorati keskin oshmaydi, avariya yuz berishiga yo'l qo'yilmaydi, shuningdek yuqori qavatlardagi jihozlar vaqtincha isib, magistralni muzlab qolishdan saqlaydi.

Suvning harakatlanishiga qarshilikni kamaytirish uchun nasoslarga parallel zadviykali aylanma tarmoq qilinadi. Agar zadviyka ochilsa, suv nasos orqali o'tmay, truboprovod orqali o'tib ketadi.

Isitish tizimlarida kichik bosimli, lekin yuqori unumli «K» tipidagi markazdan qochirma nasoslar ishlatiladi.

Suv nasos yordamida tsirkulyatsiyalanadigan ikki trubali isitish tizimi



Bunday isitish tizimlari yuqori va pastki tarmoqli bo'lishi mumkin. Yuqori tarmoqli ikki trubali tizimlarda (14-rasmga qarang) har qaysi qizdirish jihozi ham uzatuvchi ham teskari ustunlardan

15-rasm. Pastki tarmoqli va nasos tsirkulyatsiyali ikki trubali isitish tizimining sxemasi:

1 — qozon, 2 — uzatuvchi magistral, 3 — teskari magistral, 4 — uzatuvchi ustunlar, 5 — teskari ustunlar, 6 — kengaytirish trubasi, 7 — kengaytirish idishi, 8 — havo yig'gich, 9 — havo kranlari, 10 — markazdan qochirma nasos.

ta'minlanadi. Agar trubalardagi suvning sovishi hisobga olinmasa, barcha qizdirish jihozlariga bir xil haroratli suv keladi. Pastki tarmoqli ikki trubali isitish tizimida (15-rasm) uzatuvchi va teskari magistrallar

bin o'sti erto'lasiga yoki birinchi qavat polidagi maxsus kanallardan o'tkaziladi. Bunday tizimlarda issiqlik eltgich qizdirish jihozlariga yuqoridan pastga emas, pastdan yuqoriga qarab beriladi. Boshqa jihatlardan bunday tizim ham yuqori tarmoqli tizim kabi ishlaydi.

Uzatuvchi magistralli pastki tarmoqli tizimdagi havo ustunlarga ulanadigan havo tarmog'i orqali chiqariladi. Bu tarmoq bo'ylab havo yig'igichga boradi.


Pastki tarmoqli ikki trubali isitish tizimlarining yuqori tarmoqli tizimlaridan quyidagi Jihozlarning issiqlik berishini rostlash uchun ikki trubali tizimlarda qizdirish jihozlariga ulanish joylarida qo'sh rostlagichli kranlar, uzatuvchi va teskari ustunlar magistrall tarmoqlarga ulanadigan joylarga esa sal nikli, tiqinli kranlar o'rnatiladi. Bu kranlar remont paytida ustunlarni uzib qo'yish uchun zarur.

Yuqori tarmoqli tizimdagi kabi, kengaytiruvchi idish teskari tarmoqqa nasos oldiga ulanadi.

afzalliklari bor: isitilmaydigan xonalardan o'tadigan truboprovodlar soni kamayadi, demak issiqlik uncha isrof bo'lmaydi; har bir qavat bitishi bilan tizimni montaj qilish va issiqlikni berish mumkin; avariya yuz berganda tizimning ayrim ustunlarini uzish qulay, chunki uzatuvchi va teskari ustunlardagi kranlar bir joyda joylashgan.

Suv nasos yordamida tsirkulyatsiyalanadigan bir trubali isitish tizimlari

Hozirgi vaqtda suvi nasos yordamida tsirkulyatsiyalanadigan bir trubali, suvli isitish tizimlari keng tarqalgan. Konstruktiv xususiyatlari jihatidan bunday tizimlar ikki guruhga: oqava va tutashuvchi uchastkali peremichkali guruhlarga bo'linadi. Ularning har biri ham vertikal, ham



16-rasm. Nasos tsirkulyatsiyali vertikal va bir trubali isitish sigemasishgag sxemalari: a—oqava, b — o'qaviy tutashtiruvchi uchagkli, v — aralash tutashtiruvchi uchastkali; 1 — qozon, 2 — bosh ustun, 3 — kengaytirii idishi, 4 — qagistral, 5 — havo Pig'gich, 6 — ustunlar, 7 — isitish jihoz lari, 8 — teskari magistrall, 9— nasos.

gorizontal bo'lishi mumkin.

Bir trubali tizimlarda ikki trubali tizimlardagidan farqli ravishda, qizdirish jihozlariga boradigan issiq suv va jihozlarda sovigan suv bilan trubadan yuradi. Shunday qilib, tsirkulyatsiyalanadigan suv birin-ketin barcha qizdirish jihozlari orqali o'tadi. Suv barcha qavatlardagi qizdirish jihozlari orqali o'tib, asta-sekin soviydi va pastroq joylashgan har qaysi jihozga oldingisidai sovuqroq suv keladi.

Bir trubali, vertikal oqava isitish tizimining sxemasi (16-rasm, a). Qozon 1 da isigan suv bosh ustun 2 bo'ylab uzatuvchi magistrall 4 ga ko'tariladi, u yerdan ustunlar 6 bo'yicha tarqaladi. Ustunlardan suv ayrim jihozlarga emas, oldin yuqori qavat jihozlari 7 ga boradi. Jihozlarda bir oz sovigan suv o'sha ustunning o'zidan pastki qavatlardagi jihozlarga tushadi. Shunday qilib, suv ustunlar joylashgan barcha jihozlar orqali birin-ketin o'tadi. Ustunlardagi barcha jihozlar orqali o'tib, sovigan suv teskari magistrall 5 ga yig'iladi, u yerdan nasos 9 yordamida qozonga yuboriladi. Shuning uchun bir trubali oqava tizimlarda xonalarning issiqlik yo'qotishi bir xil bo'lgani holda pastki qavatlardagi jihozlarning qizish sirti yuqori qavatlardagi jihozlardagidan katta bo'ladi.

Ikki trubali isitish tizimlaridagi kabi, kengaytirish idishi 3 teskari magistrall 8 ga (nasos oldiga) o'rnatiladi. Tizimdagi xavo yiggich 5 orqali chiqarib yuboriladi. Oqava sxemalarda jihozlarning issiqlik berishini rostlash uchun (agar jihoz konstruktsiyasida ko'zda tutilgan bo'lsa) albatta havo klapanini yopib qo'yish kerak.

Qizdirish jihozlari yaqinida o'qaviy tutashtiruvchi uchastkalari bo'lgan bir trubali vertikal isitish tizimining sxemasi (16-rasm, b). Bu sistemaning ishlash printsipti quyidagicha. Issiq suv qozon 1 dan chiqib, bosh ustun 2 va uzatuvchi magistral bo'ylab ustun 6 ga boradi. Qizdirish jihozlari 7 ustunga ulanish joylarida suv oqimi taqsimlanadi: suvning bir qismi ustun bo'yicha peremichka (kashak) orqali to'g'ri o'tadi, bir qismi esa qizdirish jihoziga tushadi. Tutashtiruvchi uchastka peremichkasining diametri bir kalibr kichikligi hisobiga suv qizdirish jihoziga kiradi.


Yuqori qavatdagi qizdirish jihozida sovigan suv peremichka orqali o'tayotgan qaynoqroq suvga aralashadi. Aralash suv ustun bo'yicha pastki qavatdagi qizdirish jihozlariga tushadi, bu yerda ham suv oqishi taqsimlanadi, ya'ni bir qismi qizdirish jihozlariga boradi, bir qismi peremichka orqali o'tib ketadi. Suv har qaysi qavatda shu tarzda harakatlanadi. Shunday qilib, bu sxemada issiqlik eltgich yo'nalishida har qaysi past joylashgan qizdirish jihoziga suv pastroq harorat bilan keladi. Bunday tizimda qizdirish jihozlarining issiqlik berishi qo'sh rostlash jo'mraklari bilan rostlanadi.

Tutashtiruvchi uchastkalari nariroq joylashgan va qizdirish jihozi oldida uch yo'lli kranlari bo'lgan bir trubali vertikal isitish tizimining sxemasi (16-rasm, v). Bu tizimning ishlash printsipti o'qaviy tutashtiruvchi uchastkalari bo'lgan tizimnikidan farq qilmaydi. Uning bir trubali vertikal isitish tizimidan quyidagi afzalliklari bor:

tutashtiruvchi uchastkalarining nariroq joylashganligi suvning qizdirish jihozlariga borishini osonlashtiradi; uch yo'lli kran tikinini 90° g'acha burish hisobiga qizdirish jihozlarini rostlash mumkin; kranni butunlay ochib qo'yish yoki keragicha ochib, suvning bir qismi qizdirish jihoziga, bir qismi peremichka orqali o'tadigan qilish mumkin; ko'p qavatli binolarda isitish ustunlariga kompensatorlar o'rnatishning hojati yo'q; ustunlar qiziganda chiziqli uzayishi qizdirish jihozlari yaqinidagi tarmoqlar hisobiga qoplanadi.


Bir trubali gorizontal oqava isitish tizimining sxemasi (17-rasm, a). Har bir qavatdagi bosh ustundan gorizontal truboprovodlar o'tkazib, ularga qizdirish jihozlari ulanadi.

Bunday tizimdagi jihozlarning issiqlik berishini faqat qavatlar bo'yicha rostlash mumkin. Jihozlar oldida peremichkalari bo'lgan bir trubali gorizontal isitish tizimining sxemasi (17-rasm, b). Bu tizimda jihozlarning issiqlik berishini qavatlar bo'yicha va har bir jihozning o'zida rostlash mumkin. Tizimdagi havo jihozlarga o'rnatilgan kranlar orqali chiqarib yuboriladi. Havo chiqarishning bunday usulida tizimga qarab turish qiyinlashadi. Peremichkasiz bir trubali oqava gorizontal isitish tizimida (17-rasm, v) havo hamma jihozlarning yuqori qismini biriktirib turgan havo trubasi va havo yig'gich orqali chiqariladi.



17-rasm. Bir trubali gorizongal isitish tizimining sxemalari:

a — oqava, b — jihozlar oldida peremichkalari bor, v — havosi havo trubasi orqali chiqariladigan oqava sxema: 1 — havo krani, 2 — havo trubasi.




Magistrallari pastki tarmoqli bir trubali isitish tizimi (18-rasm) chordoqsiz binolar qurilishi munosabati bilan keng tarqalgan.

Bir trubali ustunlar qizdirish jihozlari yuqori sathidan yoki pol ustidan o'tadigan gorizontal uchastkalar bilan juft-juft qilib biriktiriladi. Suv ko'tariladigan ustun uzatuvchi magistralga, suv pasayadigan ustun esa teskari magistralga ulanadi. Sietemadan havoni chiqarib yuborish uchun yuqori qavatdagi jihozlarga havo kranlari o'rnatilgan. Qizdirish jihozlariga hisoblangan miqdorda suv kelishi ul'anishi hamda jihoz va ustunlarning deraza o'rni va devordagi o'yiqdan nariroqqa o'rnatilishi qavat ustunlari uzellarini

ixchamlashtirishni ta'minlaydi. Deraza o'rnidan radiatori 200 mm masofada va ustunni 150 mm masofada bog'lashni hisobga olib (19-rasm), jihozlarga ulanadigan trubalar standart uzunlikda — 350 mm qilib tayyorlanadi.

Psimon ustunli bir trubali isitish tizimlarida markaziy va nariroq joylashgan tutashtiruvchi uchastkalar bo'lishi mumkin.

117-rasm. Pastki tarmoqli va uch yo'lli krani bo'lgan bir trubali isitish tizimining tipaviy P simon stoyagi sxemasi.



Suv sun'iy tsirkulyatsiyalanadigan isitish tizimi
Suv sun'iy (nasos yordamida)
tsirkulyatsiyalanadigan isitish

tizimlari suv tabiiy
tsirkulyatsiyalanadigan isitish
tizimlaridan shunisi bilan farq,
qiladiki, truboprovodlar tarmog'iga
suvning tsirkulyatsiyalanishini
ta'minlaydigan nasos o'rnatiladi,
natijada bu tizimlarning

19-rasm. Daraza o'yig'idan nari o'rnatiladigan radiator va ustunni bog'lash.

ta'sir doirasi ancha kengayadi,
truboprovodlarning diametrlari kichrayadi va

tizimlarni issiqlik eltgich parametrlari yuqori bo'lgan issiqlik stantsiyalariga ulashga imkon tug'iladi.

Nazorat savollari:

1. Suv sun'iy tsirkulyatsiyalanadigan isitish tizimi
2. Suv tabiiy tsirkulyatsiyalanadigan isitish tizimi
3. Suv nasos yordamida tsirkulyatsiyalanadigan ikki trubali isitish tizimi
4. Suv nasos yordamida tsirkulyatsiyalanadigan bir trubali isitish tizimlari

6-Ma'ruza.

Mavzu: Isitish tizimining gidravlik xisobini asosiy printsipi. Yuqoriqavatli binolarning isitish tizimlari. Bug' isitish tizimi, uningqo'llanishi, sinflarga bo'linishi. Bug' isitish tizimlariningqo'llanishi. Sinflarga bo'linishi. (2 soat)

O'quv modul birliklari:

1. Talabalarni mavzuga oid bilimlarini faollashtirish. Muammoli savol va vaziyatlar tahlili.
2. Isitish tizimining gidravlik xisobini asosiy printsipi. Yuqoriqavatli binolarning isitish tizimlari.
3. Bug' isitish tizimi, uningqo'llanishi, sinflarga bo'linishi. Bug' isitish tizimlarining qo'llanishi. Sinflarga bo'linishi.
4. Ma'ruzani xulosalash.

Isitish tizimining gidravlik xisobini asosiy printsipi

Gidravlik hisob maqsadi shundaki, trubalarning diametrini hisobli ravishda tanlab olishdan va kerakli hisobiy bosimni topishdan iborat.

Hisobiy tsirkulyatsion bosimni aniqlash kuyidagicha

$$N_{rq} N_{isk} Q N_{est} [\text{Pa}]$$

bu yerda N_{isk} – suuniy bosim

N_{est} – tabiiy bosim, suvni sovutishi natijasida paydo bo'ladi.

$$N_{est} q h (\rho_0 - \rho_g) g [\text{Pa}]$$

N_r - hisobiy bosim, kuyidagicha xam topilishi mumkin.

$$N_{rq}(80-100)\Sigma l_k Q(0,5-0,7)N_e [\text{Pa}]$$

Bu yerda: h - issiqlik paydo qiladigan generatorning o'kidan (markazidan) generatorga nisbatan vertikal buyicha eng pastki issiqlik beradigan jihozning markazigacha (m) hisobidagi masofa.

ρ_0 va ρ_g - suvning zichligi (kgG^3m^3), tablitsadan

t_0 va t_r - orqali suvning zichligi topiladi

Σl_k – tsirkulyatsion hisobiy xalkaning (truboprovodning) o'zunligi (m).

Agar xaqiqiy qo'shimcha bosimni kattaligi mexanik kuchlar orqali xosil bo'lgan bosimning 1G^10 dan kam balsa, u `olda $(0,5\div 0,7) N_e$ hisobga olinmaydi. So'ng ishqalanish tufayli yukotilgan bosimning uzunlik birligiga to'ri kelgan o'rtacha miqdori aniqlanadi.

$$R_{yp} = \beta \frac{Hp}{\Sigma l_k} [\Pi a / Ha / \Pi M]$$

Hisoblangan R_{ur} - eng murakkab tsirkulyatsion xalqaning 1 metri uchun aniqlanadi.

Bu yerda: N_r – hisoblangan tizimdagi mavjud bo'lgan tsirkulyatsion bosim

Σl_k - hisoblangan xalqalarning (truboprovodlarining) o'zunligi

β - hisoblangan tizimdagi ishqalanish tufayli yo'qotilgan bosim ulushini hisobga oluvchi koeffitsient

$\beta_q 0,65$ suvli isitish tizimi uchun.

Suvni tezligini xamda xaqiqiy ishqalanishda yo'qotilgan R -ni va trubalarni diametrini spravochnik jadvalidan, issiqlik olib turuvchinining sarfi $\in$ yoki hisoblangan issiqlik miqdori Q va qabul qilingan kattaliq

R_p ga muvofiq topiladi. Spravochnik jadvalidan, xamda ma'alliy qarshilik koeffitsientlari y_i indisi $\Sigma \xi$ va issiqlik olib yurituvchilarni xarakatini tezligiga ko'ra, issiqlik taominotidagi xar bir qismi uchun ma'alliy qarshiliklarda yo'qolgan bosim z topiladi.

$$\text{Yaoni } z = \Sigma \xi \frac{v^2 \rho}{2} [\text{Pa}]$$

Hisobiy bosim yo'qolishi umumiy miqdori tizimdagi mavjud bosim miqdorini 10% kam bo'lishi kerak

Hisob jadval formasida olib boriladi. Jadvalni to'ldirish qoidasi va uning xulossasi darsliklarda to'la ravishda ko'rsatilib o'tilgan.

Elevator tanlash

Elevator issiqlik ishlab chiqarish markazidan kelayotgan yuqori bosim va yuqori haroratli suvni kerakli darajada normallashtirib beradi. Elevatorning ishlash printsipli lozim bo'lgan darsliklarda mufassal berilgan.

Elevatorni bosh qism diametri ko'yidagicha topiladi yoki nomogramma yordamida topiladi.

$$drq0,874 \sqrt{Gnn}$$

Elevator soplosining diametri ko'yidagi formula bilan aniqlash mumkin.

$$d_c q \frac{10dr}{\sqrt{\frac{0,78}{Gnn} (1+u)^2 d_r^2 + 0,6(1+u)^2 - 0,4u^2}} [\text{mm}]$$

bu yerda u - asosiy hisob xarakteristikasi bo'lib suv aralashish koeffitsienti ko'yidagi (formula) tenglama bilan aniqlanadi:

$$u = \frac{t_c - t_r}{t_r - t_o}$$

t_c - yuqori haroratli suv darajasi

t_r - issiq suv xarorati darajasi

t_o - sovutilgan suv xarorati darajasi

G_{pr} - (privedennqy) suvning keltirilgan sarfi.

Mufasssal hisob elevator uchun Tixomirov QV. kitobning 166 saxifasida yozilgan.


Kengaytiruvchi idish

Idishning xajmi V ko'yidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Vq0,045 V_{sis} [l]$$

bu yerda: 0,045 – suvning xajmiy kengayishi koeffitsienti

V_{sis} - isitish tizimidagi suvning xajmi



kvartirani isitish uchun mo'ljallangan tabiiy tsirkulyatsiyali tizim kvartirani suv bilan isitish tizimi hisoblanadi. Bunday tizim (20-rasm) oshxonaga o'rnatiladigan qozon 1, tsirkulyatsiya va issiqlik ajralishini kamaytirish

112rasm. Kvartirani suv bilan isitish uchun ikki trubali tizimning sxemasi:

1 — qozon, 2— bosh ustun, 3—kengaytirish idishi, 4 — uzatuvchi magistral, 5 — issiq sup ustunlari, 6 — isitish jihozlari, 7— teskari ustunlar, 8 — teskari magistral, 9 — to'kish va havo trubalari.

uchun izolyatsiyalanadigan bosh ustun 2, shp tagidan o'tkazilgan issiq. suv uzatuvchi tarmoq 4, issiq suv ustunlari 5, qizdirish jihozlari 6, teskari ustunlar 7 va jihozlar tagidan o'tkazilgan teskari tarmoq 5 dan iborat. Kengaytirish idishi 3 isitiladigan xonaga o'rnatiladi va bosh ustunga birkiriladi. Kengaytirish idishidan oshxonadagi rakovina diametri 15 mm li truba tortilgan bo'lib, u bir yo'la suv quyish va havo o'tkazish trubasi rolini bajaradi.

Tizimdan havoni erkin chiqarib yuborish va suvni to'kish uchun uzatuvchi va teskari tarmoqlar suv yo'nalishida qiyalatib o'tkaziladi. Suv tizimdan ventilli to'kish patrubi orqali to'kiladi. Tizimga suv vodoprovoddan quyiladi. Bunday tizimda qizdirish qozonining markazi odatda qizdirish jihozlari markazidan yuqoriroq bo'ladi. Shuning uchun tizimda suv trubalar va qizdirish jihozlaridagi sovish hisobiga tsirkulyatsiyalanadi, Ustun qozondan qancha uzoq bo'lsa, tarmoq magistraldagi suv shuncha ko'proq soviydi va shu uchastkada suvning tsirkulyatsiyalanishini ta'minlaydigan bosim shuncha katta bo'ladi. Bu tizimda bosim kichik bo'lgani uchun truboprovodning diametri katta bo'lishi kerak

Qizdirish jihozlarining issiqlik berishini rostlab turish uchun har bir jihozga «Kosva» ventili o'rnatiladi. U qo'sh rostlash kraniga qaraganda kamroq qarshilik vujudga keltiradi.

Suvni qizdirish uchun VNIISTOM cho'yan qozonlari yoki AGV80 va AGV120 suv isitgichlari qo'llaniladi. Ular oshxonaga o'rnatiladi. Suvni plitalar ichiga quyib ketilgan zmeeviklar, radiatorlar yoki suv isitish qutilari yordamida ham isitish mumkin.

PAST BOSIMLI BUG' BILAN ISITISH

Bug'ning bosimi $0,7 \text{ kgkG} \cdot \text{sm}^2$ dan oshmaydigan isitish tizimlari past bosimli tizimlar, bug'ning bosimi $0,7 \text{ kgkG} \cdot \text{sm}^2$ dan oshadigan isitish tizimlari esa urta va yuqori bosimli tizimlar deb ataladi. Bu paragrafda faqat past bosimli bug' bilan isitish haqida gapiriladi.

Issiqlik eltgich sifatida bug' ishlatilganda uning bug' hosil bo'lishdagi yashirin issiqligidan foydalaniladi. Bug' %osil bo'lishdagi yashirin issiklik — 1 kg suvni bug'ga

aylantirish uchun sarflanadigan issiqliq bug'ning bosimi $0,2 \text{ kgkG'sm}^2$ bo'lganda bu issiqlik taxminan 540 kkal bo'ladi. Bug' qizdirish jihozlarida soviganda kondensatsiyalanadi va suvning bug'lanishi uchun sarflangan issiqlikni xona havosiga beradi. Ortiqcha bosimga ega bo'lgan bug'ning ikkinchi muhim xossasi kengayishga intilishi va bosimini atmosfera bosimigacha pasaytirishidir. Ana shu xossasi tufayli bug' isitish texnikasida qo'llaniladi.

Agar sanitariya-gigiena jihatdan qaralsa, bug' suvga qaraganda yomonroq issiklik eltgich hisoblanadi, chunki chang issikligi taxminan 100°S ga teng bo'lgan qizdirish jihozlarining sirtiga o'tirib kuyadi. Quruq haydash mahsulotlari xona havosini ifloslantiradi. Past bosimli tizimlarda bug'ning harorati deyarli o'zgarmaydi va doimo 100°S dan oshiq bo'ladi.

Ana shu kamchiliklari bo'lgani uchun bug' faqat sanoat va ayrim kommunal binolarni isitish uchungina qo'llaniladi.

Bug' bilan isitish tizimlarining ishlash printsipti quyidagicha: qozonlarda hosil bo'lgan bug' bug' trubalariga, so'ngra qizdirish jihozlariga boradi. Qizdirish jihozlarida bug' kondensatsiyalanib, suvga aylanadi, kondensatsiyalanish paytida issiqligini xonaga o'tkazadi. Kondensat (suv) qizdirish jihozlaridan chiqib, kondensat trubalari bo'ylab bevosita qozonga yoki kondensat bakiga boradi. Bakdagi kondensat qozonga nasos yordamida haydaladi.

Tizimdagi havo atmosfera havo trubasi orqali chiqib ketadi. Havo trubasining bir uchi atmosfera bilan bog'langanligi uchun bug' bosimi ta'sirida truboprovoddagi kondensatning sathi bug' yig'gichdagi suv sathidan yuqori ko'tariladi. Bu farq qozondagi bug'ning bosimiga bog'liq bo'ladi. Masalan, qozondagi bug'ning bosimi 12 kgkG'sm^2 bo'lsa, kondensat tarmog'idagi suvbug' yig'gichdagi suvdan 2 m yuqori turadi.


Bug' trubada bug' bilan atmosfera bosimi orasidagi farq hisobiga harakatlanadi, chunki truba orqali tizim atmosfera bilan bog'langan. Ana shu bosimlar farqi bug'ning truboprovod bilan ishqalanishini hamda mahalliy qarshiliklarni yengishga sarflanadi. Qozonni avariya dan saqlash uchun bug' chiqarish moslamasidan foydalaniladi.

Bug' bilan isitish tizimlari

Bug' bilan isitish tizimlari bug' magistrallari yuqori (21-rasm, a) pastki (21-rasm, b) tarmoqli qilib quriladi. Rasmda bug' trubasi uzluksiz chiziq bilan, kondensat va havo trubalari punktir chiziq bilan ko'rsatilgan. Yuqori tarmoqli bug' bilan isitish tizimlarida magistral bug' trubasi yuqori jihozlar ustidan, pastki tarmoqli bug' bilan isitish tizimlari esa pastki jihozlar ostidan o'tkaziladi. Yuqori tarmoqli bug' bilan isitish tizimida kondensat bug' ta'sirida kondensat ustunlarida $1\text{—}G$ sathgacha ko'tariladi.

Kondensatsiya trubasidagi kondensat sathidan past o'tkazilgan kondensat magistrali suvga to'liq bo'ladi. Bunday truboprovod ho'l deb ataladi. Sistemadan havoni chiqarish uchun havo tarmog'i o'tkaziladi. Agar kondensatsiya magistrali kondensatsiya truboprovodidagi kondensat sathidan yuqori o'tkazilsa, bunday truboprovod suv bilan qisman to'liq bo'ladi va quruq deb ataladi.

Havo quruq kondensat trubasining suv bilan to'lmagan yuqori qismi bo'ylab o'tadi va magistralning pastki



21-rasm. Past bosimli bug' bilan isitish tizimlarining sxemasi:

a — yuqori tarmoqli va ho'l kondensat trubali, b — pastki tarmoqli va quruq kondensat trubali:
1 — havo trubasi, 2 — magistral bug' trubasi, 3 — kondensatsion truboprovod, 4 — halqa, 5 — bug' truboprovoda, 6 — kondensat trubasi, 7 — kondensatni to'kish uchun tiqin.

nuqtasiga joylashgan havo trubasi 1 orqali chiqib ketadi. Quruq kondensat trubasi suvga to'lib qolmasligi uchun uni kondensatsiya stoyagidagi kondensat sathidan 200—250 mm yuqori o'tkazish kerak


Kondensatni magistral bur trubasidan ketkazish uchun uning uchi a nuqtada halqa 4 li kondensat trubasi 3 ga ulanadi. Halqa 4 gidravlik zatvor vazifasini o'taydi. U kondensat trubasi 6 ga bug' kirishiga yo'l qo'ymaydi. Halqada bug' bosim ta'sirida suv har xil sathlar h da turadi. I—I va II—II sathlar farqi a nuqtadagi bug' bosimining kattaligiga bog'liq. Halqani toza

lash va suvni to'kish uchun pastda tiqin 7 li troynik joylashgan.

Pastki tarmoqli va ho'l kondensat trubali bug' bilan isitish tizimi ham qo'llaniladi.

22-rasm. Kondensat haydaladigan past bosimli bug' bilan isitish tizimining ochiq sxemasi:

1 — suv olib ketgich (kondensatsion tuvak), 2 — kondensatsion bak 3 — nasos, 4 — ta'minlash truboprovodi, 5 — teskari klapan, 6 — qozon, 7 — to'kish moslamasiga boradigan truboprovod.



trubasidan yuqori joylashgan bo'lsa yoki kondensat trubasida suv halqalari bo'lsa, kondensat trubasiga havo kranlarini o'rnatish kerak Ta'minlash trubasi 4 ga teskari klapan 5 o'rnatiladi. Nasos to'xtab qolgan hollarda teskari

Kondensat qozonga o'z oqimi bilan qaytadigan bug' bilan isitish tizimlari bug'ning bosimi 0,2 kgkG'sm² dan oshmaydigan hollarda qo'llaniladi. Bug'ning bosimi bundan oshiq bo'lganda suv qozondan qizdirish jihozlariga tushmasligi uchun qozonxonani

ancha past qurish lozim. Ko'pincha buning iloji bo'lmaydi. Shuning uchun bug'ning bosimi 0,2 kgkG'sm² dan oshiq bo'lganda, odatda, bug' bilan isitish tizimlari uchun ochiq sxema qo'llaniladi (22-rasm). Bu tizimga ko'ra, qizdirish jihozlarini qozonlar sathidan ham pastroq o'rnatish mumkin.

Qizdirish jihozlaridan chiqqan kondensat truba 4 bo'ylab kondensat baki 2 ga keladi, u yerdan nasos 3 yordamida qozonga haydaladi. Qozon bakdagi suv sathidan pastroq o'rnatiladi. Agar bak kondensat trubasidan past joylashgan bo'lsa, tizimdan havo kondensat trubasi bo'ylab kondensat baki orqali chiqib ketadi. Kondensat baki kondensat klapan bug' ta'sirida suvning qozondan kondensat bakiga siqib chiqarilishiga yo'l qo'ymaydi.


23-rasm. GSTM kondensatsion tuvagi (a) va uni o'rnatish sxemasi (b): 1 — kirish patrubogi, 2 — havo klapani, 3 — qalqovuch, 4 — tuvak korpusi 5 — bolt, 6 — korpus flanelarlari, 7 — tiqin, 8 — ko'taryash richagi, 9 — chiqish patrubogi, 10

kondensat tarmog'i bakka kiradigan joyga kondensat tuvagi 1 o'rnatiladi. Kondensat tuvagi kondensatni

— kuzatish teshigi, 11— kuzatish teshigining oynasi, 12 — zolotniq 13— richag, 14 — dasta, 15— teskari klapan, 16 — kondensatsion tuvaq 17 — jihoz, 18 — aylanma tarmoq.

o'tkazadi, lekin bug'ning o'tishiga to'sqinlik qiladi. Past bosimli bug' qozonlarini yo'l qo'yilgandan yuqori bosimdan saqlash uchun ularga bug'

Har qaysi sxemada ham bug' trubalari bosh ustundan bug'ning harakati tomonga 0,002 qiyalikda, kondensat trubalari esa qozonga qiyalatib o'tkaziladi. Bug' trubalarini bug'ning harakat yo'nalishiga qarshi qiyalatib o'tkazish yaramaydi, chunki bug' trubasining issiqlik yo'qotishi hisobiga hosil bo'lgan ro'para kondensat burga qarshi harakatlanib, unga to'sqinlik qiladi. Bundan tashqari, bug' va kondensatning bunday harakati natijasida isitish tizimida shovqin paydo bo'ladi,



ba'zan esa keskin taqillash va titrashlar hosil bo'lib, birikmalarni ishdan chiqarishi mumkin. Bug'ning bosimi 0,4 kgG/sm² dan yuqori bo'lgan tizimlarda bug'ning kondensat bakiga tushishiga yo'l qo'ymaslik uchun chiqarish moelamalari


o'rnatiladi. GSTM qalqovuchli kondensat tuvagi (23-rasm, a). Tuvak 4 ning korpusi ikki qismdan iborat bo'lib, ular flanetslar 6 yordamida yig'ilgan. Flanetslar boltlar 5 bilan biriktirilgan. Tuvak va

kondensat trubasidan havoni chiqarib yuborish uchun tuvakka havo klapani 2 qilingan. Kondensat va bug' tuvakka kirish patrubogi orqali kiradi.


Tuvakdagi kondensatning sathi ko'tarilganda qalqovuch 3 qalqib chiqadi va richag 13 ni ko'taradi. Richag 13 esa zolotnik 12 ni suradi. Shundan so'ng chiqish patrubogi 9 dagi chiqarish teshigi bir oz ochiladi va bur bosimi ta'sirida kondensat tuvakdan siqib chiqarilgach, qalqovuch pasayadi va tuvakdan kondensatning chiqishi to'xtaydi. Bug' tuvakning yuqori qismiga ko'tariladi va pastdagi kondensat bug'ning tuvakdan chiqishiga to'sqinlik qiladi.

Richag 13 ostida ko'tarish richagi 8 bor. Dasta 14 burilganda richag 8 qalqovuchni ko'taradi chiqarish teshigi to'liq ochilib kondensat chiqib ketadi. Tuvakda oyna 11 li tuynuk 10 bor. Tuvak bug' o'tkazayotgan yoki o'tkazmayotganligini shu tuynukdan kuzatish mumkin. Tuvakni remont qilish yoki tozalash kerak bo'lgan hollarda aylanma tarmoq 18 quriladi (23-rasm, b).

«Avtomat» kondensat tuvagi (24-rasm). Ichida qalqovuch 1 joylashgan tuvak korpusi 9 ga kondensat teshik 8 orqali kiradi. Qalqovuch tubiga sterjen 10 biriktirilgan. Sterjenning yuqori konusida zolotnik 7 bor. Korpus kondensat bilan to'lganda qalqovuch qalqib chiqadi va zolotnik chiqish teshigini berkitadi. Kondensat korpusni astasekin to'ldirib, stakan ichiga oqib tushadi va uni tubga tushiradi. Qalqovuch bilan birga sterjen 10 ham iasayib, teshik orzini ochadi. Ana shu vaziyatda bug' bosimi ta'sirida qalqovuchdagi kondensat truba 11



devorlari
10
bo'shliq
6 ga siqib



va sterjen
orasiidagi
halqasimon
orqali teshik
chiqariladi.

Teshik 6 dan chiqqan kondensat kanal 3 ga tushadi, so'ngra chiqish teshigi 2 ga o'tadi. Bug' qalqovuchdan faqat kondensatning bir qismini siqib chiqaradi. Natijada truba 11 ning pastki qismi doimo suv bilan to'la turadi, shuning uchun bug' tuvakdan teshik 6 orqali chiqi olmaydi. Kondensati siqib chiqarilgan qalqovuch ko'tariladi va zolotnik yana teshik 6 ni berkitadi.

24-rasm. «Avtomat» kondensatsion
tuvagi:

1 — qalqovuch, 2 — chiqish teshigi,
3 — kanal, 4 — vent, 5 — teskari
klapan, 6 — teshiq 7 — zolotniq 8 —
kirish teshigi, 9 — korpus, 10 —
sterjen, 11 - truba

Bug' bilan isitish tizimlarida ham qizdirish jihozlari xuddi suv bilan isitish tizimlaridagi kabi o'rnatiladi. Qizdirish jihozlariga yo'nalgan bug' trubasini jihozlarga va ustunga tomon qiyalatib o'tkazish mumkin. Bug' trubasi yuqori tarmoqli bo'lganda pastda joylashgan qizdirish jihozlariga keladigan bug' trubasini har doim jihozga qiyalatib o'tkazish tavsiya qilinadi. Shunda kondensat bug' trubasidan o'zi oqib ketadi.

Qizdirish jihozlaridan ketadigan kondensat trubalari har doim ustunga qiyalatib o'tkaziladi. Shunda kondensat qizdirish jihozlaridan chiqadi. Qizdirish jihozlari «ilmoqli» o'rnatilganda jihozlarning yaxshi ishlashi uchun uzatuvchi va teskari tarmoqlar jihozlarning har xil tomondaridan ulanishi lozim. Bug'ning jihozga kelishini rostlash va uni uzib qo'yish uchun har qaysi qizdirish jihoziga bug' tarmog'i ulanadigan joyga vent o'rnatiladi.

Bug' tizimlarining ta'sir radiusi quyidagicha qabul qilinadi:

bug'king ortiqcha bosimi 0,1—0,2 kgkG'sm² bo'lganda—200 m

» » » 0,2—0,3 » » —300 m

» » » 0,3—0,5 » » —400 m


Bug' bilan isitish tizimlarining suv bilan isitish tizimlaridan quyidagi afzalliklari bor: kichikroq diametrli trubalar ishlatiladi, isitish jihozlarining qizish sirtlari 30—35% kichikroq bo'ladi; dastlabki narxi pastroq; bug' tizimlari tez qiziydi va uzilganda tez soviydi.

Bug' bilan isitish tizimlarining kamchiliklari: isitish mavsumi mobaynida qizdirish jihozlari sirtidagi harorat yuqori bo'ladi; sifat va miqdor jihatidan rostlab bo'lmaydi; trubalarda gidravlik zarblar ta'sirida shovqin paydo bo'ladi; tarmoqlangan tizimlarda va, ayniqsa, bir necha binoga xizmat ko'rsatilganda kondensatni yig'ish va qaytarish murakkab.

25-rasm. Bug' qozonining sxemasi.

1 — to'kish krani, 2 — yuqori troyniq 3 — biriktirish tarmogi, 4 — suv ko'osatish oynasi, 5 — manometr, 6 — zadviyka, 7 - gidravlik zatvor, 8 — havo yntili, 9 — bug' yig'gich, 10 — puflash krani, 11 — tsirkulyatsion truba, 12 — berkigish ventili, 13—ta'minlash truboprovoda 14 — qozon, 15 — ta'minlash ventili, 16 — kondensatsion baq 17 — nasos, 18 — teskari klapan.

Bug' bilan isitish qozonxonasining jihozlari



Bug' bilan isitish cho'yan qozonining printsiplial sxemasn 25-rasm ko'rsatilgan. Past bosimli bug' qozonlari quyidagi qurilmalar bilan jihozlanadi.

Bug' cho'yan qozonlarini bosim ko'tarilishidan saqlash uchun himoya chiqarish moslamalari o'rnatiladi (26-rasm). Bunday moslama pastki kollektor 1 va yuqori bakcha 5, pastki kollektorni yuqori bakchaga birlashtiradigan har xil diametrli trubalar 4, chiqarish moslamasini qozonga ulaydigan truba 3 dan iborat. Bu truba bug' qozoni patrubogiga ventil oldidan o'rnatiladi.

